

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQALDIROQ GAZETASI

www.mv-vatanparvar.uz

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 21-mart  
№12 (3126)

## Bahor kulgisi

Yana bahor kulgisin sochdi quyosh nafasi,  
Vatan degan havoga to'ldi ko'krak qafasim.  
Go'zallik iforini sochib bola jahonga,  
Xush kelibsan, Navro'zim, ona O'zbekistonga!

Ruhim ulg'aydi, jismim go'dakday atak-chechak  
Pildirab, adirlarga izlab ketdi boychechak,  
Ipakday nur yog'ildi eski ko'ngil tomonga,  
Xush kelibsan, Navro'zim, Yangi O'zbekistonga!

Mansur JUMAYEV

Qadriyatlarin boqiy bo'lsin,

**NAVRO'Z!**

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

vatanparvar-bt@umail.uz

facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

## Konferensiya




Bahrrom ABDURAHIMOV

## О'Q OTISH SPORTI: YANGI MARRALAR BELGILANDI



Mudofaa vazirligi markaziy apparatida O'zbekiston o'q otish sporti federatsiyasining navbatdan tashqari konferensiyasi bo'lib o'tdi.



Unda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri – O'q otish sporti federatsiyasi raisi general-major Shuxrat Xalmuxamedov, sport vaziri Adham Ikramov, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi bosh kotibi Oybek Kasimov, shuningdek respublikamizning barcha hududlarida tashkil etilgan studiyalardan hududiy sport boshqarmalari, "Vatanparvar" tashkiloti va o'q otish sporti bo'yicha mas'ullar, federatsiya

vakillari hamda murabbiylar ishtirok etdi.

Xabarlingiz bor, 2024-yilning 4-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'q otish sporti turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Mazkur qaror mamlakatimizda ushbu sport taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish, iqtidorli sportchilarni tayyorlash, murabbiy va hakamlar



malakasini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi ustuvor yo'nalishlarda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Konferensiyanı O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-major Shuxrat Xalmuxamedov ochib berar ekan, qisqa vaqt ichida federatsiya boshqaruvida amalga oshirilgan ishlar, yaqin istiqboldagi rejalar haqida to'xtalib, sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq chora-tadbirlarni hamkorlikda amalga oshirish xususida to'xtalib o'tdi.

Maqsad aniq qo'yildi, ya'ni o'q otish sport turini yanada rivojlantirish, yosh iqtidirlarni aniqlash va saralab olish, ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash hamda hududiy terma jamoalarning respublika va xalqaro sport musobaqlarida yuqori natiyalarga erishishini ta'minlash.

Shundan kelib chiqib, federatsiya rahbariyati tarkibi qayta shakkantirilishi masalasi ko'rib chiqildi.

O'zbekiston o'q otish federatsiyasi mutaxassislari va delegatlarning taklifi hamda ovoz berishi asosida

Ramiz Yenaliyev, Akbar Karimov va Husan Botirov federatsiya raisi o'rinoslarli lavozimiga saylandi.

So'ngra kun tartibidan federatsiyaga rais o'rinoslarini saylash, ijroiya qo'mitasi va nazorat-taftish komissiyasi tarkibini tasdiqlash, federatsiyaning hududiy bo'limlariga yangi raislarni tayinlash kabi masalalar atroficha ko'rib chiqilib, nomzodlar ovoz berish orgali tasdiqlandi.

Konferensiya davomida 2028-yilda Los-Anjelesda o'tkaziladigan navbatdagi yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga samarali tayyorgarlik ko'rish yuzasidan Mudofaa va Sport vazirliklari o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Ushbu konferensiya va hamkorlik memorandumi kelgusida nafaqat o'q otish sportini, balki armiya sportini ham yanada rivojlantirishga hamda davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan topshiriqlarning sifatli bajarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
"Vatanparvar"

Uchinchi Renessansning ma'naviy poydevori



Umida TESHABOYEVA,  
Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori



## TUGANMAS XAZINA

**‘** Kitob – beba ho boylik. Kutubxonalar – tiganmas xazina. Foydalanganingiz sari qimmati oshsa oshadiki, aslo kamaymaydi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining Qo'lyozmalar, noyob va alohida qiyamatga ega nashrlar fondida saqlanib kelinayotgan XIII-XIX asrlarda yaratilgan nodir qo'lyozmalar, kitoblar, albomlar, ensiklopediyalar, lug'atlar ham shunga monand. Ular nafaqat mahalliy, balki Markaziy Osiyo mutaxassislari orasida boy fondlardan biri ekani e'tirof qilingan. Shu bilan bir qatorda, fonda saqlanayotgan ilk chop etilgan gazeta va jurnallar tadqiqotchilar tomonidan qiziqib o'rganiladigan manbalardan biri hisoblanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lponning hayotlik davrlarida nashr qilingan asarlari ular merosini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

**TURKISTON**  
**MA'RIFATPARVARLARINING OTASI** Mahmudxo'ja Behbudiy millatning ko'zini ochmoq, uni asriy qullik kishanlaridan ozod etmoq yo'lida "Samarqand" gazetasini, "Oyina" jurnalini nashr qilgan. Ularda Turkiston musulmonlarini dunyo ahli a'molidan ogoh etdi, taraqqiyot va ozodlikning yorqin yo'llarini ko'rsatib bordi. Turkiston ma'rifatparvarlari orasida birinchi bo'lib o'zbek tilida "Padarkush" nomli drama yaratdi va o'zbek dramaturgiyasining poydevorini qo'ydi. O'sha davr maktablari orasida yangilik sanalib, ko'pchilikning e'tiborini qozongan usuli jadid maktablarining birinchi nazariyotchi va amaliyotchilaridan bo'ldi.

Milliy kutubxonada saqlanayotgan "Turkiston viloyatining gazeti"ning 1908-yilgi 22-iyun sonida Behbudiy imzosi

bilan "Ob открытие мусулманской библиотеки читальний в Самарканда – Мутолаахона" degan maqola bosilgan. **"Samarqandda umumiy mutolaaxona – biblioteka, chitalniy ochmoq uchun o'n ikki nafar muhtaram kishilar ila birga 27 bobdan iborat bir dastur, ustaf tuzib, janob baland darajalik Samarcand gubernatoriga topshurub edukki, inshoollo, qonunnoma jamiyati mustahkam bo'ldi"**, deb yozadi Behbudiy.

Shunday qilib, Samarqandda ochilgan birinchi musulmon kutubxonasi katta bir shijoat, zavq-shavq bilan ishlay boshlaydi. Ziyoxonaning kitob fondi o'ziga yarasha boyib boradi. Dastlab boy va savdogarlar bu joyga Qur'oni karim va boshqa diniy kitoblardan sovg'a qiladi. Kutubxonaga mehri tushib qolgan Samarqandning boy-savdogarları iona va xayriyalar qila boshladi. Behbudiy imzosi bilan bunday saxovatpesha va ma'rifatparvar kishilarning uzundan uzoq ro'yxati berilib, olqishlar bilan yozib borildi. 1908-yilning oxirlariga kelib kutubxona ishlari yaxshi izga tushib ketadi. Buni biz "Turkiston viloyatining gazeti"ning 1909-yil 15-yanvarda "Samarqand kitobxona va mutolaaxonai islomiyasining 1908-yil hisobnomasi" sarlavhalı Behbudiy maqolasi orgali bilamiz.

**O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI** fondida saqlanib kelinayotgan boy madaniy va ma'rifiy meros bilan yoshlarimizni, mutaxassislarni, professor-o'qituvchilarni yaqindan tanishtirish, ularga mazkur resurslardan tadqiqot obyekti sifatida foydalanshlariga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Mahmudxo'ja Behbudiy



muharrirligida chop etilgan "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnalni, Behbudiyning ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, musulmonlarning madaniy va zamонави bilim olishga undovchi maqolalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Fondimizda saqlanayotgan nodir jurnallardan biri – "Oyina" Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlari asos solgan va muharrirlilik qilgan birinchi milliy, haftalik, suratli jurnaldir. Bu jurnal o'lka xalqlarining fikriy uyg'onishiga katta hissa qo'shdi. Turkiston va Buxorodan tashqari Ziyo Saidning ko'rsatishicha, bu jurnal "Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyaga tarqalar edi".

Jurnalning birinchi soni 1913-yilning 20-avgustida dunyo yuzini ko'rgan (*hijriy yil hisobida 1331-yilning 1-shavvoli*). B. Gazarov va K. Sliyanov litografiyasida bosilgan. Jami bo'lib 68-son chiqqan. Oxirgi soni 1915-yilning 15-iyunida chop qilingan. Uning ilk sonidan joy olgan Behbudiyning "Turkiston" sarlavhalı maqolasida o'lkanning geografik, ma'muriy tafsifi berilgan. Aholisi, viloyatlari, uyezd

va sanjoqlari haqida ma'lumotlar bor. Uning "Sherdor madrasasi" sarlavhalı maqolasi esa madrasanining yuzaga kelish tarixi, binoning tarhi va arxitektura jihatidan o'ziga xosligi haqida ma'lumot beradi.

### "IKKI EMAS, TO'RT

**TIL LOZIM** degan mashhur maqolasida Mahmudxo'ja Behbudiy turkistonliklar ijtimoiy turmush sharotlariga ko'ra, to'rt tilni bilishlari lozimligi dalillar bilan isbotlangan. Shuningdek, Vasfiyning "Tanbeh va bayoni voqe" degan madrasa va mudarrislar; Milliyning "Ittijo" degan millat ahvoli haqidagi she'rlari; Faxriddin Rojiyning "Oyina chist?" "Oyina" jurnaliga tavsifiy bayon hamda she'ri o'quvchilarda qiziqish uyg'otgan. Sahobalar kasb va tijoratga qanday munosabatda bo'lgani haqidagi maqola, Usmonli doktor Basim Umar poshoning "Tutun" nomli asaridan qisqartirib berilgan "Tutun yoinki tamoku" degan parcha, bankdan mayda qarz olish tartibi va oqibatlari to'g'risidagi Mahmudxo'janing "Mayda qarz" (*Melkiy kredit*) kabi ijtimoiy, iqtisodiy, fanniy, jug'rofif, adabiy materiallar jurnalning mazmundorligini oshirgan.

"Oyina" jurnalni ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqi, tarixi va til-adabiyot masalalari, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat-markazida turdi. Behbudiy millatning taraqqiyysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi.

Behbudiy adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so'ng bu sohaning xususiyatlarini ta'kidlab, adabiyotda tenghuquqlilik masalasini o'rta ga qo'ydi. 1914-yil 27-sonda "Taqid saralamoqdur" deb nomlangan maqolasi chop etildi.

Adibning barcha tarixiy-ilmiy mavzudagi maqolalari o'tmishta kamoli ehtirom va e'tiqod bilan yozilgani boisidan Uchinchi Renessansning madaniy poydevori tiklanayotgan bugungi kun uchun juda zarurdir.

**Malaka**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini zamonaviy geoaxborot dasturiy ta'minot vositalari hamda topogeodezik ta'minotning texnikalari bilan butlash, kadrlar salohiyatini oshirib borish mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobtaga olgan holda armiyamiz qudrati, mamlakatimiz mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida Mudofaa vazirligi Navigatsiya-topogeodeziya va Kartografiya markazlari o'zaro hamkorlikda taktik o'quv mashg'ulotini o'tkazdi.

Mazkur mashg'ulot davomida yerni masofadan zondlash materiallari yordamida elektron xaritalar yaratish va yangilash singari vazifalarni bajardi. Shuningdek, soha mutaxassislarining bilim, ko'nikma va salohiyati yangi bosqichga ko'tarildi.

– Biz navigatsiya topografiya bo'limi hisobi taktik o'quv mashg'ulotlari davomida yuqori qo'mondonlik tomonidan qo'yilgan jangovar topshiriqa asosan, qo'shinlarni topogeodezik ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida belgilangan hududda yuqori aniqlikda ishlovchi zamonaviy

# O'ISA VA OTDA



## ANIQ MA'LUMOT



asboblar yordamida topografik suratga olish ishlarni bajardik, – deydi leyttenant Abdusodiq Berkinov. – Zimmamizga yuklatilgan jangovar topshiriqlarni tez fursatlarda va sifatli bajarishimizda biz, yosh mutaxassislarga malakali ustozlarimizning ko'rsatmalari hamda yuqori aniqlikda ishlovchi uskunalar yordam bermoqda. Albatta, jarayonlar nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarimizni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

– Biz turgan xona Kartografiya markazining karta tuzish qismi hisoblanadi, – deydi mayor Behzodjon Abdullayev. – Bu jarayonning asosiy qismi. Chunki belgilangan hududlarni, joylarning o'zgarishiga oid ma'lumotlarni yangilab borish muhim sanaladi. Bizning vazifamiz esa bugungi kunda elektron raqamli xaritalarni yangilash, tuzish, yaratish va qo'shinlarga ishonchli hamda sifatli geografik ma'lumotlarni

yetkazishdir. Ushbu taktik o'quvda tog' o'tish, suv bosish hududi ma'lumotlarini yangilash va o'sha joyda olib borilgan o'zgarishlarni xaritada ko'rsatish vazifikasi qo'yilgan.

– Hozirda biz Navigatsiya-topogeodeziya va Kartografiya markazlari bilan hamkorlikda taktik o'quvlarni o'tkazmoqdamiz, – deydi mayor Otabek Satimurodov. – Mazkur kompleksimiz yordamida uchuvchisiz uchish apparatlaridan

olingoq fotosuratlarni qayta ishlab, qo'shinlarni tezkor ravishda joyning geofazoviy ma'lumotlari bilan ta'minlaymiz. Ushbu elektron hisoblash mashinalari esa qisqa muddatda belgilangan hudud fotosuratlarini joyning o'zida elektron xaritaga aylantirish imkonini beradi va ularni tezkor ravishda qo'shinlarga uzatadi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,**  
"Vatanparvar"

Mardi maydonlar



## ARTILLERIYA – OLOVLI QALQON

Bugungi davr har qaysi sohada tinimsiz izlanishni, zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo qilmoqda. Shundan kelib chiqib Qurolli Kuchlarimizda ham qo'shinlarning jangovar shayligini yanada oshirish maqsadida uzlusiz o'quvlar, ko'rik-tanlov va musobaqalar o'tkaziladi. Maqsad bitta: tinchlikka qalqonlarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltirish, o'zaro tajribalar almashishdan iborat.

Markaziy harbiy okrugining Kattaqo'rg'on garnizonidagi harbiy qismlarning birida Mudofaa vazirligi miqyosida tashkil etilgan "Artilleriyadan otish va o't ochishni boshqarish" tanlovingin yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Unda harbiy xizmatchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi.

Ta'kidlash joizki, jarayonlar davomida soha vakillari tomonidan amaliy otishlarni nazariy jihatdan samarali tashkil etish, bo'linmalarning o'zaro uyg'un harakatini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

- Artilleriya to'plaridan aniq va samarali zarbalar berish orqali nishonlarni tezkor yo'q qilishni chuqur bilishi kerak, - deydi podpolkovnik Yorqinjon Mahmudov. - Shu sababdan ham o'tkazilgan musobaqalar davomida soha vakillarining nazariy bilimlari berilgan topshiriqlarda baholandi. Ta'kidlash kerakki, har bir jarayonda kim nimaga qodir, kim o'z kasbining haqiqiy ustasi ekani yuzaga chiqdi. Shuningdek, yetakchilarning komandirlik qobiliyatni, bo'linmalarni boshqarish, nostandard vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish kabi jihatlari yanada rivojlantirildi.

Uch bosqichda tashkil etilgan musobaqalarning yakuniy bahslarida harbiy xizmatchilar 3 ta shart bo'yicha o'zaro kurashdi. Dastlab maxsus tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar qabul qilindi. Otish va o't ochishni boshqarish bo'yicha vazifalar ham yuqori saviyada ado etildi. So'nggi shartda esa ishtirokchilar 50 ta savolga javob berish orqali qanchalik darajada tayyorgarlik ko'rganlarini namoyon etdi.

- Komandir har jihatdan bilimli bo'lishi kerak, - deydi podpolkovnik Sirojiddin Avazov. - Qolaversa, tajribasini oshirib borgan, malakasini mustahkamlab kelgan bo'lsagina, u har qanday sharoitda, har qanday topshiriqni bajarishga qodir bo'ladi. Shaxsiy tarkibga namuna o'laroq yuzaga kelgan vaziyatni ijobjiy tomonga o'zgartira oladi. Berilgan vazifani kutilganidan-da a'lo darajada bajaradi. Bugungi tanlov esa har birimizni ayni yo'nalishdagi tajribalarimiz ortishiga xizmat qildi, desam, xato bo'lmaydi.

Haqiqatan ham bugungi kunda artilleriya bo'linmalari jangovar vazifalarni bajarishda bosh kuch va muhim tezkor-taktik vositadir. Ular arsenalida mavjud zamonaviy to'plar, reaktiv qurilmalar, gaubitsalar,

minomyotlar artilleriya qismlarining o't ochish imkoniyatlari, jangovar harakatlar samaradorligini yanada oshiradi. Tanlov davomida ham soha mutaxassislari tomonidan amaliy otishlarni samarali tashkil etish, bo'linmalarning o'zaro uyg'un harakatini ta'minlash, yangi otish uslublarini nazariy jihatdan qo'llash, ko'rib chiqish, sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi.

- Yurt posbonlari o'rtaasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga e'tibor qarataman, - deydi mayor Doniyor Rahimov. - Chunki doimiy tarzda o'z mahorati ustida izlanishda bo'lgan harbiy xizmatchi hech qachon mag'lubiyatga uchramaydi. Shu sabab qo'l ostimdag'i bo'ysunuvchilarning bilim va mahoratlarini doimiy ravishda oshirib borishga harakat qilaman. Bugungi bahslarga keladigan bo'lsam, u shaffof va haqqoniy tarzda kechди. Ustozlardan o'rganganlarimizni sinovdan o'tkazib oldim. Har bir qatnashchi bu yerga g'olib bo'lishni maqsad qilib kelgan. Demak, hamma yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, o'qigan, izlangan va o'rgangan. Bu berilgan vazifalarni bajarish davomida ham ko'zga yaqqol tashlandi. Qo'lga kiritgan g'alabam esa jamoamning qo'llovi va bildirgan ishonchi natijasidir.

Ta'kidlash kerakki, bugun dunyo va mintaqada kechayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, qurolli to'qnashuvlar har qaysi davlat oldiga o'z Qurolli Kuchlarining kuch-qadratini, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada oshirish kabi muhim talablarini qo'yamoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur tanlov davomida ham soha vakillarining yo'nalishlardagi ko'nikmalari sinab ko'rildi. Jamoaviy birdamligini mustahkamlashga ahamiyat qaratildi.

Yakunda "Eng ilg'or guruh komandiri", "Eng ilg'or batareya komandiri", "Eng ilg'or divizion komandiri", "Eng ilg'or umumqo'shin, qo'shilma artilleriya boshliqlari", "Eng ilg'or komandir o'rinosbasari" kabi nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Unga ko'ra, umumjamoa hisobida 1-o'rin Markaziy harbiy okrugga nasib qilgan bo'lsa, 2-o'rinni Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug hamda Toshkent harbiy okrugi egalladi. 3-o'ringa esa Sharqiy harbiy okrug artilleriya mutaxassislari munosib ko'rildi. G'oliblar diplom, kubok hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,  
"Vatanparvar"**



Katta leytenant Ahad ABDUJABBOROV

"Yashil makon" umummiliy loyihasi



## BU JOYLAR BOG' BO'LADI



Bundan to'rt yil avval Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummiliy loyihasi hozirgi kunga kelib chinakam xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur ko'plab hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2025-yil – Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilingani bejiz emas.

Bu borada qabul qilingan davlat dasturida ham "Yashil makon" umummiliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzaralari va mevali daraxt hamda butalar ko'chatlarini, qalamchalarini ekish, 2025-yilda mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, respublika bo'yicha 444 ta yashil bog' barpo etish va barcha shaharlarni to'liq "yashil belbog'"lar bilan qamrab olish, har bir yirik sanoat korxonasi hududida va unga tutash hududlarda ham "yashil belbog'"larni barpo etish

rejalashtirilgan. Jumladan, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan "Qiziltog'" hududidagi maydonda manzaralari va mevali ko'chatlar ekilib, mutaxassislar yordamida har bir ko'chat aniq o'lchamlar asosida o'tqazildi, – deydi Ohangaron tumani o'rmon xo'jaligi noziri Abdug'affor Shorahmatov. – Ularni sug'orish uchun yurt posbonlarining 6 kilometr masofadan buloq suvi tortib olib kelgani tahsinga loyiq. Mazkur tashabbus bo'sh maydonlarda yashil hududlar barpo etish, aholi va yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Parkent tumanidagi "Qiziltog'" aholi yashash punktida mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov boshchiligidagi Mudofaa vazirligi markaziy apparati harbiy xizmatchilari, Qurolli Kuchlar akademiyasi hamda Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti kursantlari ishtirotida ko'chat ekish aksiyasi tashkil etilgani ayni ezgu ishlarning davomi bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan "Qiziltog'" hududidagi maydonda manzaralari va mevali ko'chatlar ekilib, mutaxassislar yordamida har bir ko'chat aniq o'lchamlar asosida o'tqazildi, – deydi Ohangaron tumani o'rmon xo'jaligi noziri Abdug'affor Shorahmatov. – Ularni sug'orish uchun yurt posbonlarining 6 kilometr masofadan buloq suvi tortib olib kelgani tahsinga loyiq. Mazkur tashabbus bo'sh maydonlarda yashil hududlar barpo etish, aholi va yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda yurtimizda daraxt ekish umummiliy harakatga aylanib, bu boradagi amaliy ishlarni keng quloch yoydi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan "Yashil makon" umummiliy loyihasi ekologik vaziyatni yanada yaxshilash hamda iqlim o'zgarishlariga milliy yechim sifatidagi noyob loyiha bo'ldi. Mas'ullarning ta'kidlashicha, 2025-yil davomida 50 gektarga 25 ming tup ko'chat ekish rejalaشتirilgan bo'lib, ayni vaqtga qadar 15 ming tup turli mevali va manzaralari ko'chat yerga qadaldi. Shuningdek, avvalgi yillarda o'tqazilgan ko'chatlar tartibga keltirilib, shakl berildi. Atroflari yumshatilib, begona o'tlardan tozalandi.

Ekologiya va atrof-muhitni yaxshilash, hududlarni obod va ko'rkan qiyofaga keltirish maqsadida "Yashil makon" – bu

kelajak avlod oldidagi majburiyatimiz!" shiori ostida o'tkazilayotgan "Yashil makon" umummiliy tadbiri Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda ham jadal sur'atda davom etmoqda. Mavsum davomida harbiy okrug qo'shnilar qo'mondonligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi harbiy qism va muassasalar, shuningdek hududiy davlat o'rmon xo'jaligining bo'sh turgan yerlariiga 176 726 tup manzaralari hamda 4 587 tup mevali ko'chat va buta ekildi.

Ko'chatlarni o'tqazishdan oldin unumsiz qum va tuproq olib tashlanib, o'rniiga maxsus aralashmali tuproq substansiysi qo'yilmoqda. Harbiy qism va muassasalar, harbiy shaharchalar hududlarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish maqsadida bo'sh yerlarga manzaralari daraxtlar ekilmogda.

Nukus garnizonida g'ayrat va shijoat bilan o'tkazilayotgan tadbirdirlarda harbiy xizmatchilar faol qatnashib, mamlakatimiz ekologiyasining kelajagi uchun katta umidlar bilan harbiy qism va muassasalar hududlariga ko'chatlar ekmoqda.

Bu kabi tadbirdirlar mamlakatimiz bo'ylab keng ko'lamda davom etmoqda.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**

# MILLIY ARMIYAMIZGA MUHABBAT

JANGOVAR MEHNAT,  
URF-ODAT, SADOQAT BILAN  
YANADA YUKSALADI

Har bir millatning mustaqillik yo'lidagi aniq maqsadi va orzu-umidlari bo'ladi. Bu maqsadlar va orzu-umidlар esa asosan armiya va uning qudratiga bog'liq. Milliy armiyamizga nisbatan muhabbat, faqat uning askarlariga yoki qurollariga bo'lgan ehtirom emas, balki u mamlakatning tinchligi, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlaydigan muhim omildir. Bu muhabbat jangovar mehnat, urf-odat, harbiy va milliy qadriyatlarimiz bilan yanada yuksaladi.

## JANGOVAR MEHNAT VA ARMIYANING MUHIM QADRIYATI

Armiya – har bir davlatning kelajagi, xavfsizligi va mustaqilligining garovi bo'lib, u mamlakatni har xil tahdidlardan himoya qiladi. Yangi

O'zbekistonimizning milliy armiyasi o'z harbiy qadriyatlariga ega bo'lib, uning barcha askarlari vazifalarini vijdonan va samarali bajarishga intiladi.

Milliy armiyamizga bo'lgan muhabbat – bu Qurolli Kuchlarimiz tarkibida o'zining shijoati, mas'uliyati va jangovar sifatlari bilan tinchlikni ta'minlashga hissa qo'shib



kelayotgan har bir askarning maqsadga erishishi uchun turli mutaxassislik sohalarida jonbozlik ko'rsatib kelayotgan harbiy xizmatchilarimizning jangovar mehnati, insonparvarligi va vatanparvarligiga bo'lgan ehtiromidir.

Jangovar mehnat, buyuk kelajagimiz, davlatimiz hamda xalqimiz tinchligi uchun jonini fido qilishga tayyor mard va jasur harbiylarimizning ko'p yillar davomida to'plagan harbiy mahorati, matonati va serqirraligi bilan qo'shgan hissasi, millatimiz uchun mo'ljallangan tinchlik va barqarorlikning asosiy omillaridandir.

## URF-ODAT VA MILLIY QADRIYATLARIMIZGA SADOQAT

Milliy armiyamizga nisbatan muhabbat, nafaqat harbiy xizmat va jangovar vaziyatlarda ko'rsatiladigan matonat, balki milliy urf-odatlarimizga va qadriyatlarimizga ham tutash va bog'liqdir. Zero bizning xalqimizning ulkan tarixiy merosi, qadimiy urf-odatlari va an'analarini qadrlash milliy armiyamizdagи har bir jonkuyar askarning yuragidagi sadoqatini yoritadi.

O'zbek millatining bosib o'tgan tarixiy o'tmishiga nazar solar ekanmiz, **ma'rifatparvar, fidoyi, elparvar va ozodlik uchun kurash olib borgan jadidchi vakillarimizning boy merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini o'rganish orqali,adolat va tenglikni, ilm-ma'rifatni, milliy o'zlikni asrash g'oyalarini ilgari surib, kurash maydoniga mardonavor chiqqanliklarini unutishga haqqimiz yo'q albatta.** Bu ulug' bobolarimizning maqsadi jaholatga qarshi ilm va ma'rifikat bilan kurashib ma'naviy qashshoqlashib kelayotgan xalqni dunyoviy ilm-fan, kasb-hunar bilan qurollantirib, ular o'rtaida qadriyatli munosabatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan.

Ular tomonidan yangicha yondashuvdagi maktablar, kutubxona, teatr va muzeylar, gazeta hamda jurnallarning chop etilishi, xalqimizni uyg'otib, ularni ilm olishga bor kuch-g'ayratini sarflashga undadi. Bu ishlar esa harbiy jamoalarning milliy va jangovar ruhini oshirishga, **g'oyaviy jangchi shaxsini shakllantirishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilib kelmoqda.**

Milliy armiyamizga muhabbat – bu buyuk xalqimizga, uning o'tmishidagi avlodlariga, tili va madaniyatiga, urf-odatlarimizga nisbatan hurmat va e'ozzni anglatadi.

**Milliy armiyamiz nafaqat davlat xavfsizligini ta'minlovchi institut, balki millatning ma'naviy-ruhiy asoslarini, urf-odatlarini va qadriyatlarini saqlovchi, ularga sadoqatli**

## bo'lishni talab qiluvchi yordamchi kuchdir.

Milliy armiyamizda xizmat qilayotgan har bir jonkuyar ofitser, serjant va askar o'zining sadoqatini, fidoyiligini, mard va jasurligini, yurtimiz tinchligi uchun chinakam mas'uliyatini, unib-o'sib kelayotgan yoshlarga, xonadonida esa farzandlariga, ustoz-shogird an'analarini harbiy jamoalarda to'laqonli amalga oshirilishida milliy, ma'naviy, madaniy va harbiy qadriyatlarimizga tayanib, ularga xalqaro va milliy normalarga muvofiq, hayot kechirishga ilhom berishdir. Bu usuldagи harbiy xizmat, jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga, o'zligini anglashga va millatning taqdiriga sodiq bo'lishga yo'naltiradi.

## MILLIY ARMIYANI YANADA YUKSALTIRISH


Milliy armiyamiz o'zini eng yaxshi kadrlar bilan to'ldirish va bu borada oliy maqsadlarga erishishga intiladi. Hozirda milliy armiyamiz jahoning eng zamonaviy qurol-yarog', tibbiy hamda muhandislik uskunalari va texnikasi bilan ta'minlanib, zamonaviy harbiy ta'lim va ta'limotlar olishga e'tibor qaratmoqda.

Qurolli Kuchlarimiz saflarida bugungi kunda ofitser, serjant va askarlarimizning bilim darajasi, ularning harbiy kasbiy va jangovar tayyorgarligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki jahon maydonlarida sun'iy intellekt bilan bog'liq urush o'choqlari rivojlanib borayotgan bir vaqtida unga bo'lgan immunitetni shakllantirish va unga qarshi samarali choralarini ko'rish bugungi kun talabidir.

Shuni unutmashligimiz kerakki, **milliy armiyamizga nisbatan muhabbat yosh avlod uchun namuna bo'lib, ularning Vatanga bo'lgan muhabbati va sadoqatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy armiyamizga muhabbat – bu harbiy xizmatchining o'ziga bo'lgan muhabbati va g'ururining yaqqol ifodasidir. Bu sadoqat, har bir ofitser, serjant va askarning xalqimizga bo'lgan hurmat va ehtiromini ko'rsatadi. Bizning milliy armiyamiz nafaqat belgilangan jangovar xizmat va uzoq yillar davomida o'rganilgan ish tajribasi bilan, balki xalqimizning milliy, ma'naviy, madaniy, tarixiy hamda harbiy qadriyatlarini va an'analarini hurmat qilish bilan ham aloqador. Milliy armiyamizga bo'lgan muhabbat, har bir ofitser, serjant va askarning armiyamizga yot bo'lgan har xil g'arazli illat (*korrupsiya, narkotik moddalar almashinuvi, ichkilikbozlik va b.*) lardan xoli bo'lib, jon-jahdi bilan fidoyi hamda sadoqatli bo'lib, harbiy xizmatni o'tashi Yangi O'zbekistonimiz va xalqimizni yangi yuksalishlar sari yetaklaydi.

**Podpolkovnik  
Anvarjon IBRAGIMOV,  
O'zbekiston harbiy aviatsiya  
instituti katta o'qituvchisi**



# ICHIMDAGI YOMON “ODAM”

**Aka, ichimda o'zga bir inson bordek.  
Yomoni, u har zamon isyon ko'taryapti.  
Sababsiz g'alayon qiladi-da. Haa, yo'lga  
solib kelyapman. Sira tek qo'yganim ham  
yo'q. Ammo ha deb tartibga chaqiraverib  
charchadim. Sizda ham shunday bo'lar  
ehtimol? To'g'ri aytasiz. Har kimning ruhida  
unday “odam” bor aslida.**

O'zi, boshqa bir voqeani aytib bermoqchi edim. Rosti, keyingi paytlarda ko'p chalg'i yapman.

Xullas, yaqinda Sariosiyo va Uzun tog'larida Vatan tinchligi yo'lida ko'ksini yov o'qiga tutib, joni uzilgan serjant Dilshod Asonovning amakisi Qutbiddin aka bilan tanishib qoldim. U xotira sandig'ini titkiladi. Hikoyasi juda mungli. Qayg'usi ruhimga ko'chgan. Shundan beri ado bo'lib yashayapman. Shogirdi, safdoshi va bolasidek bo'lgan jiyanning jonsiz tanasini jang maydonidan sug'urib olib, o'z qo'llari bilan qorong'i, namiqqan va zax yerga qo'yan.

Boshidan boshlay, a? Nazarimda, tinglaydiganga o'xshayapsiz?

Asonov katta bo'lgan kichikroq hovlining burchagida, xurmo daraxti tagidagi oromkursida Qutbiddin aka bilan yonma-yon o'tiribmiz. O'n besh yoshli qizning kaftidek keladigan barglar orasidan quyoshning siniq nurlari yuzko'zimizga tushyapti. Havo dim. Qilt etgan shabada yo'q. Yer yuzini chuqur-chuqur ajinlar qoplab olgan. Faqat besh qadam naridan o'tgan ariqda yovvoyi o'tlar javdirab turibdi. Ular qurishga ulgurmagan. Nazarimda, onda-sonda suv kelsa kerak-da.

- Kapalak yashagan hayot, uning uchun juda uzoqdek tuyulsa kerak, a? - dedim.

- Ba'zida ming yil yashagandan ko'ra, bir kunlik umr - hayotning eng shirin lazzatini his qilishga ham yetadi, - dedi Qutbiddin aka dag'al ovozda. So'ng u bo'ynini biroz cho'zib qaragan edi, yuz terisi pir-pir uchganday bo'ldi. - Nega, bilasizmi?

Ko'zlarini qisib, savol nazari bilan qaradi. Men jim turaverdim.

- 50-60 yil yashaymiz-u biroq hayotni to'liq anglay olmaymiz. Chunki bizning ko'zlarimiz tumshug'imizdan narini ko'rolmaydi. Ba'zida ko'rganlarimizni miyamiz qabul qilishni istamaydi ham. Shunga o'rganganmiz.

Uning chehrasi horg'inlashdi. Ko'zlarining osti yanada ko'karib, osilib goldi. Qo'llari tizzalarini ustidan bo'g'ma

ilondek sirpanib tusha boshladi.

- Yoki shunga o'rgatilganmiz, - dedim beparvo so'zlab.

Aka, bilasiz hammada ham o'zgalar dardini his etish bir xil bo'lmaydi. Lekin Qutbiddin akaning qalbini o'rtayotgan g'am shu qadar og'ir ediki, uni yuzko'zidan ham bilib olish mumkin edi.

Ko'cha darvozasi og'rini ochildida hovliga yoshi ancha qaytib qolgan Xolidaxon aya va uning kenja o'g'li Arslonbek mayda-mayda qadam tashlab kirib keldi. Ular bilan so'rashdik. Onaxonning yuzi avvalgi yilga nisbatan so'lg'in bo'lib ko'rindi. Ko'zlar ham kirtayib qolibdi. Rangi siniqqan. Biroz shishgan barmoqlari tinmay titraydi. Nafas olishi ham juda tez: xirillaydi. To'g'ri aytasiz, ehtimol, qarichilikdir?

Ular uyga kirib ketdi. Qutbiddin aka bilan yana yolg'iz qoldik.

- Kelinoyim Dilshoddan keyin qaytib o'zini tiklay olmadi, - dedi Qutbiddin aka Xolidaxon ayaning ortidan ma'yus qarab turgancha. - Ona uchun bola hech qachon o'lmasin ekan.

U peshanasi va qoshlarini kafti bilan tez artib oldi. Tashvish tortganida yo biron nima demoqchi bo'lganida har doim u shunday qilayotgan edi.

- Mana shu joylarda jiyanim bosgan oyoqlarining izi qolgan, - dedi u o'ng qo'li bilan hovli burchaklarini ko'rsatib. Keyin: - Bu izlar ming yil yomg'ir yog'sa ham aslo o'chib ketmaydi, - gavdasini rostlab oldi. Shunda Qutbiddin akaning yuzidagi ajinlar yaqqolroq ko'zga tashlandi.

- Dilshod yelkalarimda o'ynab, katta bo'lgan, - dedi u. - Hatto ulg'ayganidan keyin ham erkalanishni qo'ymadi. Bu ba'zida g'ashimga tegardi. Lekin bugun o'sha damlarni qo'msayman, - erkakning yuzi turopq tusiga kirdi.

Jo'ram, shoir Dilmurod Do'stning she'ri esimga tushib, uni yoddan o'qidim:

- Tug'ilding, bu hayot ostonasida,  
Seni qarshi oldi, bir yog'och beshik.  
Ulg'ayib, yashab so'ng  
ko'zing yumganda,  
Qabringga kuzatdi, tebranmas beshik.  
Bu hayot - shu ikki beshik orasi...

Misralarni tugatib, Qutbiddin akaga yelka osha qaradim. Tumshug'i asabiy titraydi. Qoshlari qattiq chimirilgan. Boya aytganimdek, uning ichida ham isyonkor "odam" bor-da. Qo'yib bersa, meni g'ajishga tayyor. O'ng'aysizlanib, nigohimni olib qochdim.

- "Bu hayot - shu ikki beshik orasi", - deb she'rni takrorladi. Lekin menga u g'o'l dirayotgandek tuyuldi. - Kelganda beshik qarshilaydi, ketayotganda tobut, deng, - endi uning ovozi ancha yumshagandi. Hatto sergak ham tortgandi.

Indamadim. Nima ham derdim? Chunki bu hayot tuynugini ocholmay sarson-sargardon yurmayapmanmi? Biz Majnun emasmiz. Hatto bu yo'lga ham tusholmaymiz. Irodamiz ojiz.

Aytdim-ku, keyingi paytlarga keraksiz, bo'limg'ur o'ylarga chalg'i yapman deb. Keyinmi? Qutbiddin aka 2000-yil voqealarini so'zlay ketdi.

- Dilshod bilan ikkimiz bitta batalyonda xizmat qilganmiz, - deya shivirladi. - Keyinchalik men boshqa bo'linmaga o'tib ketdim. Jiyanimni ondasonda ko'rib qolardim. Har uchrashganda u nimalarnidir so'rardi. Albatta, bilganlarimni erinmay o'rgatardim.

Aka, miyamga urilgan o'y lablarim orasidan qanday qilib sirpanib chiqib ketganini bilmay qoldi. Sizda ham hech shunday bo'ladimi?

- Yaqinlarimizni faqat rihlat qilganidan keyin ulug'lashga o'rganib qolganmiz, bu naqadar yomon odat, a? - dedim xirillab.

Qutbiddin aka menga yalt etib qaradi. Shunda uning ko'zlar xira tortganini ko'rdim. Gavdasi ham birdan bukchaydi. Mung'aygancha uzoq jum qoldi. O'rtada cho'kkan sukunat tamoman og'irlashib boraverdi. Aytgan gapimdan pushaymon yedim. Hatto, a'zoyi badanim qaltirar, ikki chakkam lo'qillar, o'zimni sira ham qo'lg'a ololmay timirskilana boshladim.

- Dilshodning jonsiz tanasini samolyotda olib qaytganmiz, - deya tilga kirdi u. - O'shanda oldimdag'i tobutta yotgan jiyanimning o'rnida bo'lib qolishni juda istaganman. Men uddasidan chiqolmagan, qo'limdan kelmagan ishni qilgan edi u. Vatan uchun jon berdi.

Qutbiddin aka o'ziga-o'zi gapi rayotganga o'xshardi. Keyin quruqshagan lablarini tishlab, shu turishda to'g'riga qaragancha qotdi. Birozdan so'ng yana tilga kirdi.

- Ko'p o'ylayman. Bir kun uyqudan uyg'onanimda hammasi o'tgan, unutilgan va yo'qlikka singib ketgan bo'ladi, - u kaftini ko'ziga tutib, soyabon qildi. Boisi quyosh naq ustimizda turardi.

Qutbiddin aka yonimda edi-yu lekin shunchalik zo'riqib turardiki, qo'l tek kizishing bilan sochilip ketardi, go'yo.

- Hech kim ertangi kunini bugunidan yaxshi bo'lishini bilmaydi, bilolmaydi. Bunga qodir ham emas. Demak, yakun qanday, bu hamon sirligicha qolaveradi.

- Himm, sirlar bizga ochiqlanmaydi, - dedi u beparvolarcha.

Bilasizmi, men urushni yomon ko'raman, aka. Hatto, ana shu urush sahnalari bor kinolarni ham ko'rolmayman. Shu mavzudagi asarlarni-ku umuman o'qiy olmayman. Qon to'kishlar va jon olishlarga yuragim dosh bermaydi. Xohlamasam ham ko'zlarimda yosh turadi. Ehtimol, diydam hali qotmagani uchundir? Ichimdag'i "odam"mi? U lekin istaydi.

- Men ko'proq o'sha o'qqa loyiq edim, - dedi Qutbiddin aka. - Chunki Dilshodning mendan oldin jon berishida aybdor his qilaman o'zimni. Boisi bilganlarimni jiyanimga vaqtida o'rgatanimda, balki bugun u davramizda o'tirgan bo'larmidi?

- Taqdirni o'zgartirishga qodir bo'lganimizda edi, ehtimol, siz bilan ham yonma-yon o'tirmsasdik.

- Ehtimol, o'tirardik.

- Nima bo'lqanda ham ba'zan ixtiyorim o'zimizda bo'lmyaydi.

- Vatanga sochilgan umrlar-chi?

- Har birimiz Vatan tuprog'iga aylanishni istamaymizmi? Tabiatan eng qo'rroq kishi ham ich-ichidan botir, o'laroq nom qoldirib, jon berishni xohlab yashaydi. Tinchlik uchun chiqazilgan nafaslar esa eng oliysi sanaladi, nazarimda.

Tuyqus uning chehrasi ochilib, allanechuk ravshanlashdi.

- Shunday, - dedi u mavzuga nuqta qo'yib. Keyin: - Inson bolasi gulga o'xshaydi, - gapida davom etdi, - g'uncha bo'lib shakllanadi. So'ng ochilib, iforini atrofga sochadi. Oxirida qovjirab, zaminga to'kiladi.

Aka, men sizga aytasam, unday insonlar allaqachon to'kilib bo'lgan. Faqat bizga sezdirmaslikka harakat qilib yashaydi. Gardanidagi yuki shunchalar og'irki, hamma ham uni ko'tarib yurolmaydi. Bilasizmi, nimadan ko'ngli taskin topadi? Jigarlarining qoni Vatan uchun oqqanidan. Aytgancha, hech qo'lingizga tikan kirganmi? Yo'qmi? Ko'ryapsizmi, hatto siz shu dardni ham his qilmaganlardansiz. Jahlingiz chiqmasin. Haq gapni qabul qilishga ham odatlaning-da endi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,  
“Vatanparvar”**

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi



# QUROL VA QALAMNI TENG TUTIB

## UMAR XO'JAYEVNING URUSH YILLARIDA KO'RSATGAN JASORATI

Xalqimiz o'zining mard, jasur o'g'lolaridan ayrligan, minglab oilalar otasidan, turmush o'rtog'idan va pahlavon farzandlaridan judo bo'lgani hech kimga sir emas. Qurolli Kuchlar davlat muzeyi o'zida bu urush bilan bog'liq ko'plab noyob arxiv hujjatlarini saqlash bilan birga, ularni ilmiy jihatdan o'rganadi. Har safar qo'limga arxiv hujjatlarini olar ekanman, urush voqealari aks etgan bir qancha asarlar va ocherklar muallifi bo'lish bilan birga urushda o'z jasoratini ko'rsatgan qahramonlar haqida qiziqarli ma'lumotlarga duch kelaman.

Menda urush qatnashchisi, bir qancha orden va medallar sohibi, jurnalist Umar Xo'jayev haqida ma'lumotlarni o'qib o'rganish ishtiyogi paydo bo'ldi. Bu boroda "Umar Xo'jayev tavalludining 100 yilligi"ga bag'ishlangan kitob-albomda keltirilgan ma'lumotlarga tayandim.

Shu o'rinda Ziyod Esonboyevning Umar Xo'jayev haqidagi xotiralaridan parcha keltirishni joiz deb bildim.

- 1917-yilning 15-oktabr sanasida Xo'ja ota va Po'lat buvi oilasida Umar ismli ikkinchi o'g'il farzand dunyoga keldi. Umarning bir yoshida otasi og'ir kasallik tufayli vafot etadi, besh yoshga to'lganida esa onasidan judo bo'ldi. Amakisi Mahkam polvon Umar, akasi O'sar va singlisi Xatirani o'z qaramog'iga oladi. Jiyaning qobiliyatini va iqtidorini yuqori baholagan amakisi uni Toshkentga o'qishga borishi kerakligini aytgan. Dastlab A.S. Makarenko nomli bolalar uyida, keyinchalik "Urfon" mehnat muktab-internatida tarbiyalangan Umar muktabda yaxshi o'qidi, devoriy gazetalar chiqarib xabar va maqolalar yozishni o'rgandi. 1934-yilda Toshkent viloyatining Qurama (hozirgi Ohangaron) tumaniga ishga yuborildi. Bu yerda ishlab yurgan paytida "Lenin uchquni" va "Yosh leninch'i" gazetalarida bir qancha maqolalar chop etdi. Buni kuzatib yurgan "Qurama haqiqati" tuman gazetasining muharriri, tajribali keksa jurnalist Toji Xushnazarov Umarni ishga taklif qiladi va unga muharrirligining asrорларини о'ргата boshlaydi. Umarjon bu gazetada

ommaviy ishlar bo'limi mudiri, keyinchalik mas'ul kotib bo'lib, 3 yil mehnat qildi.

Toshkentdagi Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga o'qishga kirib, olyi ma'lumotli bo'ldi. Urush boshlangach yoshlar gazetalari vaqtinchalik yopildi. Umar Xo'jayev "Qizil O'zbekiston" gazetasiga partiya turmushi bo'limining mudiri qilib tayinlandi. Elimiz boshiga tushgan o'sha og'ir musibatlari kunlarda uning "Unutilmas kunlar va tunlar", "Jasorat madhi", "Urush kunlarida raykomsomol", "Eski shahar qariyalarining vatanparvarlik tashabbusi", "Qudratli namoyish" (evakuatsiya qilingan yetim-yesirlarga g'amxo'rlik ko'rsatish haqida) kabi publisistik maqola va reportajlari gazetada e'lon qilindi.

...1941-yilning noyabr oyi oxirlarida Usmon Yusupov 150 nafar yoshni suhbatga taklif qilib, fashist bosqinchilar Moskvaga juda yaqinlashib kelayotganligini, Gitler Germaniyasining ittifoqchisi - Yaponiya Uzoq Sharqda agressiyaga tayyorgarlik ko'rayotganligini ro'yirost aytib berdi. Bu suhbatda jumhuriyatimiz Prezidenti Yo'ldosh Oxunboyev ham qatnashgan edi. Suhbatdan so'ng ularning Uzoq Sharqqa harbiy xizmatga ketishlari, u yerda o'zbek jangchilari orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlar olib borishlari lozimligi ma'lum qilindi. Usmon Yusupov va Yo'ldosh Oxunboyevning suhbatlaridan Umar Xo'jayev ruhlanib, jangga otlangandek Sharqiy chegaraga harbiy xizmatga jo'nab ketdi.

1941-yilning dekabrida Umarjon Xabarovskdagagi siyosiy xodimlar tayyorlovchi qisqa muddatli harbiy kursda ta'lif oldi. Kursni tamomlab, yaponlarning Kvantun armiyasiga qarshi turgan Qizil Bayroqli birinchi armiya tarkibidagi polk rotasida 1943-yilning kuzigacha siyosiy rahbar bo'lib xizmat qildi.

1943-yilning kuz oylarida ko'plar qatori Umar Xo'jayev ham Uzoq Sharqdan G'arbg'a - 1-Ukraina fronti ixtiyoriga yuborildi. Mashhur 4-gvardiyachi Kantemir tank korpusining 3-brigadasida batalyon partorgi bo'lib birinchi marta jangga kirdi. Ukraina, Polsha va Chexoslovakia yerlarini fashist bosqinchilar ozod qilishda siyosiy rahbar sifatida hamma shaxsxiy o'rnak ko'rsatib, batalyon jangchilarini mardlik,

jasorat bilan shiddatli jang qilishga, qo'mondonlikning buyrug'ini bajarishga safarbar qildi. Quroldoshlarining jasurligi haqida o'zbek tilida chiqadigan front gazetasiga ko'plab maqola va reportajlar yozib turdi. 1-Ukraina frontining "Vatan sharafi uchun" gazetasida bosilib chiqqan "Starshina Saidov", "Oldingi safda", "Muqaddas qasos soati yaqin" maqolalari fikrimizning yorqin isbotidir.

Urush yillari Umar Xo'jayevning siyosiy rahbar sifatidagi tashkilotchilik va targ'ibotchilik qobiliyati, jurnalistik iste'dodi tez orada ko'zga tashlanib qoladi. Yuksak vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan mardlik va jasoratga undovchi maqola va reportajlari, askarlar bilan qilgan qizg'in suhbatlari, otashnafas nutqlari jangchilar qalbida o't yoqdi.

1945-yilning yanvar-aprel oylari - Berliniga tarixiy hujum operatsiyasi boshlangan hal qiluvchi, jangovar kunlar yaqin qolgan quvonchli damlar edi, o'shanda. G'alaba kunini yaqinlashtirishga baholi qudrat hissa qo'shdi. Bu operatsiyalarda faol ishtirot etgan Kantemir gvardiyachi korpusi jang bilan Dnepr, Visla, Oder, Nayse daryolarini kechib o'tib, Berlinning janubi-g'arb tomoniga Elba daryosi bo'yiga chiqdi, Chexoslovakia poytaxti Praga shahrini ozod qilishda qatnashdi.

Umar Xo'jayevning mardona jang qilgani haqida front gazetalarida yozishgan. So'zimizning dalili sifatida 1-Ukraina frontining o'zbek tilida chiqarilgan "Vatan sharafi uchun" gazetasining 1945-yil 18-aprel sonida bosilgan bir lavhadan parcha keltirmoqchimiz.

"...Batalyon hujumga o'tish to'g'risida buyruq oldi. Partorg Umar Xo'jayev tezlikda komunistlarni to'plab, jangovar buyruq mazmuni bilan ularni tanishtirdi. Partbyuro a'zolari, agitatorlar, barcha komunistlarni rojalarga yuborildi. Har bir jangchiga bo'lajak xarakteri, vazifasi tushuntirib berildi. Batalyon oldiga ro'paradagi aholi punkti hamda temiryo'l stansiyasini egallash qat'iy vazifa qilib qo'yildi.

"Gvardiyachi o'rtoqlar! - deyilganda partorg tarqatib chiqqan varaqada, - ana, oldimizda qishloq ko'rning qilishimiz. Signal berilishi bilan biz uni ishg'ol qilishimiz kerak.

Nihoyat, signal berildi. Batalyon partorgi Umar Xo'jayev birinchilar

qatorida otilib chiqdi va "Vatan uchun olg'al" deb xitob qildi. Undan ilhomlangan gvardiyachilar sherdan jangga kirib ketdilar, aholi punktni va temiryo'l stansiyasini gitlerchilardan tozaladilar va o'zlar bu marralarni mustahkam oldilar..."

Vatan urushida fashist bosqinchilariga qarshi kurashda qahramonlik, mardlik va jasorat ko'rsatganligi uchun Umar Xo'jayev birinchi va ikkinchi darajali Vatan urushi ordenlari, Qizil Yulduz ordeni va juda ko'p medallar bilan mukofotlangan.

Gvardiya kapitani Umar Xo'jayev xizmatdan 1947-yilning mart oyida bo'shab, yana o'zining sevgan kasbi - jurnalistikaga qaytib keldi. Qashqadaryo viloyatining "Qashqadaryo haqiqati" gazetasiga muharrir etib tayinlandi. Keyin uni partiya organlarida ishslash uchun yo'llashdi. 1949-1952-yillarda Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida, 1952-1957-yillarda Qoraqalpog'iston ASSR Chimboy tumanida partiya komitetining birinchi kotibi vazifasida ishladi. 1957-yilning sentabr oyidan 1959-yilning iyul oyigacha Moskvada, KPSS Markaziy Komiteti huzuridagi oliy partiya maktabida o'qidi. O'qishni tugatgach, 1961-yilgacha Piskent tumani ijroiya komitetining raisi bo'lib xizmat qildi. Mehnat frontida fidokorona xizmatlari munosib taqdirlandi. Umar Xo'jayev o'z ustida kechalari qunt bilan ishladi, ko'p narsalarini o'qidi, ijod qilishdan to'xtamadi, qalamini charxlab, jurnalistik mahoratini takomillashtirib bordi. Qalamkash do'stlaridan, redaksiyalardan aloqasini uzmadni, tajribali, yetuk jurnalistlardan maslahatlar olib, ulardan o'rganishga harakat qildi. "O'zbekiston" nashriyotida chop qilingan "Jasorat madhi", "Olov kechgan o'g'lolar", "Yosh gvardiya" nashriyotida chop qilingan "Jasorat yo'li", "Xalq jasorati", "Janglarda toblangan do'stlik" kabi ocherklari va publisistik maqolalari Umar Xo'jayevning ijod mahsulidir.

Muallif quroldosh do'stlarining urush yillaridagi jasoratini, jang maydonida ko'rsatgan mislsiz qahramonligini, yurtdoshlarining mehnat zafarlarini, Mirzacho'lni o'zlashtirib Sirdaryoni gullab-yashnagan vodiya aylantirilganligini qo'lga qalam olib madh etishni o'zining muqaddas burchi deb biladi. Umar Xo'jayev mana shularning hammasini chuqr tahlil qilib, o'zbek dehqonining irodasi, ona zaminga mehr-u muhabbatni, mardligi va matonatini ulug'lovchi maqolalar yozdi.

"Sovet O'zbekistoni", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Sirdaryo haqiqati" gazetalari bosib chiqargan "Kantemirovchilar dovrug'i", "Jangovar yillar xotirasи", "G'alaba tongi", "Berlin shturmining qatnashchisi" kabi ocherklari va publisistik maqolalari urush yillariga bag'ishlangan bo'lsa, "Ma'murchilik xazinasи", "Murodiga yetganlar", "El farzandi", "Ibrat", "Yuksalish" ocherklari Mirzacho'l qahramonlari haqida hikoya qiladi.

Qahramonimiz vatanparvarlik to'g'risida shunday degan edi: "Biz baxtli kishilarmiz, deb yozgan edi Umar Xo'jayev. Qanchadan qancha qurbanlar berdi. Ko'z oldimizda ne-ne jangovar do'stlarimiz halok bo'ldi. Necha martalab o'lim bilan kurashdik. Lekin bularning hammasi bekorga ketmadи. Baxtli zamonga yetib keldik. Biz tinchlikni qadrlashimiz va uni yovuzlardan himoya qilishimiz kerak. Buni, ayniqsa yosh avlod unutmasligi zarur".

Gulnoza USMONOVA,  
Qurolli Kuchlar davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi

Muqaddas burch

## XORAZMLIK YOSHLAR MUAZZAM MAYDONDA SAF TORTDI

Jaloliddin Manguberdi majmuasida Xorazm viloyatining chaqiruv yoshiga yetib, belgilangan saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, sog'lig'i jihatidan harbiy xizmatga yaroqli, yurtimiz himoyasiga kamarbasta bo'lgan yoshlari tantana bilan Mudofaa hamda Ichki ishlar vazirliklari qo'shinlari saflariga kuzatildi.



Ushbu muazzam maydonda Vatanni himoya qilishga shaylangan o'g'lolarni ehtirom bilan armiya saflariga kuzatishning o'zgacha ahamiyati bor, albatta. Zero bog' markazida tulpor jilovini mahkam tutib, yurt himoyasiga otlanib turgani tasvirlangan buyuk ajdodimiz siyosida kelajakka katta ishonch bilan intilayotgan xalqimizning vatanparvarligi, bukilmas irodasi o'z ifodasini topgan. Sulton Jaloliddin mo'g'ul bosqinchilariga qarshi 300 dan ortiq janglarda qatnashib, yovlarni titratib kelgan. Bunday jasorat, qahramonlik har-

qanday odamni hayratda qoldiradi, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida faxr va iftixor tuyg'ularini jo'sh urdiradi, ularni buyuk ishlarga ruhlantiradi. Shu bois bu maydon yoshlарimizning katta hayotga kirib borish ostonasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Muqaddas maydonda o'tkazilgan tantanali tadbir Nukus garnizoni harbiy orkestri ijrosida O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini kuylashdan boshlandi.

Tantanali tadbirning ochilish marosimida Xorazm viloyati hokimi

Jo'rabe Rahimov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinnbosari podpolkovnik Lochinbek Rasulov va boshqalar alpqomat yoshlarga muddatli harbiy xizmatni o'tab, yorug' yuz bilan uyiga qaytishlarini tilab qolishdi. El-yurt tinchligini asrash Vatanimizning fidoyi, mard va jasur o'g'lolnarigagina nasib etishini, bugun esa bu mas'uliyat ular zimmasiga tushganini ta'kidlashdi. Harbiy xizmatga jo'nab ketayotgan xorazmlik mard va jasur o'g'lolarga yuksak ishonch bildirib, omad yor bo'lishini tiladi.

Harbiy xizmatchilarning qo'ljangi ko'rgazmali chiqishlari yig'ilganlarga jangovar kayfiyat tuhfa etgan bo'lsa, harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan sho'x-shodon kuy va navolar barchani raqsga chorladi.

Tadbirdan so'ng yoshlar Urganch temiryo'l vokzali orqali muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun belgilangan joylarga jo'nab ketdi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV**  
Shimoli-g'arbiy harbiy  
okrug matbuot xizmati

Chaqiruv – 2025

## QALBDA G'URUR, KO'ZDA HAYAJON

Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasining yig'in punktida Vatan oldidagi muqaddas burchini bajarishga otlangan yigitlarni muddatli harbiy xizmatga tantanali kuzatishga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.



Unda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining birinchi o'rinnbosari polkovnik Azizjon Nabihev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qoraqalpog'iston bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi, Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, davlat va jamoat tashkilotlari

vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari, nuroniylar hamda chaqiriluvchilarning yaqinlari ishtirot etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar Vatanni himoya qilishdek muqaddas va sharafli burchni bajarishga shay turgan o'g'lolarga oq yo'l tiladi. Ona yurtini himoya qilish, uning sarhadlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash

mas'uliyati faqat sara yigitlarga nasib etishini e'tirof etdi.

Kuzatuv marosimida Nukus garnizoni harbiy okrestri hamda madaniyat boshqarmasi tomonidan kuylangan kuy-qo'shiqlar yurt himoyasiga otlangan yigitlarga xush kafiyat ulashib, safar oldidan ko'ngillarini ko'tardi.

Barcha sinovlardan o'tib, ma'nан va jismonan sog'lom ekanligini isbotlagan yigitlar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa hamda Ichki ishlar vazirliklari qo'shinlariyo'l oldi.

**Alijon BOYMURATOV,**  
**Qoraqalpoq davlat universiteti**  
**4-bosqich talabasi**

Chaqiruv – 2025

## SHARAFLI MAQSAD YO'LIDA

Termiz shahridagi "Vatanparvarlar" bog'ida muddatli harbiy xizmatga otlangan bir guruh mard, jasur o'g'lolarni tantanali kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.



Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimligi, Termiz harbiy prokurururası, Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi viloyat bo'limi, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi viloyat boshqarmasi mas'ullari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tantanali tadbirda Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i polkovnik Po'latjon Sativaldiyev so'zga chiqib, milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning tinch va farovon hayotimizni ta'minlashdagi ahamiyati

haqida atroficha fikr yuritdi. Chaqiriluvchilarning Vatan oldidagi yigitlik burchini sharaf bilan o'tashiga omad tilab, ularning Amir Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajodolarimiz jasoratiga sodiq bo'lishiga katta ishonch bildirdi.

– Bugun o'g'lim Sobirjon ham boshqa tengdoshlari qatori muddatli harbiy xizmatga yo'l olmoqda, – deydi angorlik Gulchehra Qurbonova. – Bu oilamiz uchun sharaf. Sobirjonning saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatlari o'tganini eshitib, juda quvongandik. Bugun esa bir quvonchimizga yana bir quvonch qo'shildi. O'g'limning harbiy libos yarashib turgan

bo'y-bastiga qarab to'ymayapman. Tilagim – doimo ishonchimizga munosib bo'lib, yorug' yuz bilan bag'rimizga qaytsin.

– Vatan tinchligi, yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilish har bir yigit uchun muqaddas burch, – deydi Boysun tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan Jo'rabe Eshpo'latov. – Men bugun shunday sharafli yo'l boshida turibman. Ochiq, oshkora tanlov asosida saralab olinganlar safida muddatli harbiy xizmatga jo'nayotganimdan quvonchim cheksiz. Endi Jizzax viloyatida yurtimiz osoyishtaligi, xalqimiz tinchligi va obod hayot uchun xizmat qilaman. Zimmama yuklatiladigan barcha vazifalar ni a'lo

darajada bajarib, Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilishga va'da beraman.

Tadbir davomida Vatan himoyasiga otlangan chaqiriluvchilarga "Armiya – hayot maktabi" kitobi hamda sanitariya-gigiyena vositalari topshirildi. Osh tarqatildi.

San'atkorlar hamda baxshilarning konsert dasturi esa tadbirga o'zgacha shukuh olib kirdi.

Shu kuni o'g'lolnar Termiz temiryo'l vokzalidan tantanali kuzatildi.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni

### O'zbek yigit – istiqlol posboni

## ZABARDAST O'G'LONLAR YURT HIMOYACHILARI SAFIDA

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlariga 2025-yilda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yosh va navqiron o'g'lolnar Nukus shahriga yetib keldi.



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun Nukus shahriga yetib kelgan o'g'lolarni Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, Qurolli Kuchlar faxriylari va keng jamoatchilik vakillari Nukus temiryo'l vokzalida kutib oldi.

Darvoqe, mamlakatimizning turli viloyatlardan saralab olingan mana shunday mard va zabardast o'g'lolnar joylarda tantanali kutib olinyapti. Zero

yurt qo'rishdek mas'uliyatlari vazifaga kirishayotgan yigitlar xalqimiz, davlatimiz tomonidan yuksak qadrlanadi.

Shu munosabat bilan harbiy qismda o'tkazilgan tadbirda okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Rahmatullo Rahmonov so'zga chiqib, Vatan oldidagi muqaddas va sharafli burchini bajarish uchun kelgan yoshlarga bukilmas irodva matonat tiladi. Qoraqalpog'iston zaminida yigitlik burchini o'tayotgan bu azamatlarni qutlab, bu yurtning

boy tarixiy merosi, madaniyati va urf-odatlari bir yil davomida muddatli harbiy xizmatni o'taydigan askarlarda katta taassurotlar qoldirishiga ishonch bildirdi. Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrab, yorug' yuz bilan uylariga qaytishini tiladi.

Nukus garnizoni harbiy orkestri ijrosidagi diltortar navolar ostida qarshi olingan yangi chaqiriluvchilarga tantanali kutib olish marosimi o'zgacha kayfiyat va shijoat bag'ishladi.

Harbiy qismiga yetib kelgan elimizning zabardast o'g'lolari bo'limmalarga bo'linib, ular bilan bir oylik yig'in mashg'uloti o'tkazilishi belgilangan. Yig'inga biriktirilgan malakali ofitser va serjantlar armiya hayotiga kirib kelayotgan chaqiriluvchilarga harbiycha hayot tarziga tez va oson moslashishi uchun ko'mak beradi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo xonliklari harbiy jihatdan zaif bo'lib, ulardagi qo'shin ta'limi va qurol-yarog'lar zamondan orqada qolgandi. Xonliklarning chor Rossiysi ta'sir doirasiga tushib, mustamlaka bo'lishining asosiy sabablaridan biri shu edi.

# BUXORODA MILLIY QO'SHIN TUZISH HARAKATLARI

## QO'SHIN TUZILISHI

Uch davlatdan yirigi hisoblangan Buxoro amirligida qo'shin tuzilishi "To'pchilar" (Artilleriya), "Kuban kazaklari", "Shefksiy", "Terskiy", "Arabbachalar", "Turkman favji", "Sarbozlar", "G'ulombachchalar", "Elnavkarlar", "Nizomiy" kabi guruhlardan iborat bo'lib, ularga xizmat haqi uchun pul va turli in'omlar berilgan. To'plar ikki turda bo'lib, dahanapur (*og'zidan o'qlanadigan*) va dumbulapur (*orgasidan o'qlanadigan*) kabi nomlar bilan atalgan.

## IKKINCHISI INTIZOMLI ASKAR

Chor Rossiysi bosqini davrida ham amirlik armiyasida jiddiy islohotlar o'tkazilmadi. Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon zamonida Buxoro qo'shinlari soni 12 ming kishidan oshmas, qo'shin tarkibida harbiy texnika, aeroplan (*aviatsiya*), zamonaviy artilleriya qurollari yo'q edi.

Shuning uchun Turkfront qo'mondoni M. Frunze boshchiligidagi qizil askarlar 1920-yil sentabrida amir ustidan osongina g'alabaga erishdi. BXSR tashkil etilganidan so'ng yangi hukumat a'zolari Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi mamlakat mustaqilligining asoslaridan biri sifatida milliy armiya tuzishga e'tibor qaratildi. "Millatning saodati uchun ikki narsa, birinchisi, ilm-u maorif, ikkinchisi, yaxshi va intizomli askar tashkil qilmoq zarur", deb yozgandi o'sha davr matbuoti.

## MATBUOT URGAN "BONG"

Muntazam milliy armiya tuzish, uni mahalliy mutaxassislar bilan ta'minlash to'g'risidagi taklif va mulohazalar davriy matbuotda yoritila boshlandi. Xalq maorifi noziri Qori Yo'l dosh Po'latov mamlakat mudofaasi uchun "oqcha, ozuqa va mol"ni ayamaslik, Buxoro Respublikasining jug'rof yaritasini tuzib, chegaralarni mustahkamlash, harbiy mahorat va harbiy texnikani o'rganish uchun iqtidorli yoshlarni xorijga o'qish uchun yubormoq, xalqimizda askarlikka muhabbat uyg'otmoq, harbiy yo'nalishda

nashrlar ochish kabi takliflar bilan chiqdi. 1922-yildayloq 1-Buxoro harbiy qo'mondonlar kursi ochilib, unda o'zbek, turkman, tojik, qirg'izlardan iborat kursantlar ta'lum ola boshladi.

## O'ZBEKCHA YURITMAKNI O'LAYLIK

"Buxoro axbori" gazetasining birinchi muharriri, keyinchalik Buxoro Respublikasining Ozarbayjondagi elchisi Mahmud Said Ahroriy harbiy qismlarni to'la milliylashtirish (*ya'ni mahalliy millat vakillarini jaib qilish*) masalasini kun tartibiga qo'yadi. U "askarlarimizning barchasi rus askarlaridan iboratligi"ni ta'kidlab, "endigi vazifa rasmiy hujjalat yuritishdagi, komanda berishdagi ruscha muomala o'rniqa, o'zbekcha muloqotni joriy qilishduri. Askar va zabitlarga beriladigan dars, ta'lum va komandalarni o'zbekcha yuritmakni mumkin qadar ko'proq o'laylik", deb yozgandi Ahroriy.

## QURUQ SO'Z BO'LMASLIGI KERAK


1920-1922-yillarda **Buxoro Respublikasidagi 30 minglik armiyaning atigi 400 tasi mahalliy millat vakillari bo'lgan**. Hukumat rahbarlaridan Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja, Atoulla Xo'ja, Abdulhamid Oripovlar "qizil armiya qismlari Buxoro hududida turar ekan, respublika mustaqilligi faqat quruq so'zdan iborat bo'ladi", deb hisoblashardi.

## USMON XO'JANING ORZU-UMLIDLARI...

BXSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining birinchi raisi Usmonxo'ja Po'latxo'jayev 1922-yilda Afg'onistonga borib, ingлиз konsuli bilan uchrashishga harakat qilgan. **Maqsad, oltin barobarida inglizlardan kelgusida tuzilajak Buxoro milliy armiyasi uchun zamonaviy qurol-yarog'lar sotib olish bo'lgan**. Lekin Usmon Xo'janing orzu-umidlari ro'yobga chiqmay, bir umr muhojirlikda, g'urbatda yashashga majbur bo'lgandi.

## KESKIN TALABLAR

1923-yil Buxoroda F. Xo'jayev Moskvaga Butunittoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (BMIK) raislaridan biri sifatida o'z vazifasini bajarish uchun ketadi. Uning o'rniida qolgan Atoulla Xo'ja va siyosiy maslakdoshlari Buxorodagi rus vakili oldiga: "Bosmachilar" dan musodara



qilingan qurollarni milliy armiya ixtiyorida qoldirish, "bosmach" sifatida asir olinganlarga respublikaning o'z sudida jazo berish kabi keskin talablarni qo'yadilar.

Chunki asosan Yevropa vakillaridan iborat harbiy hukm (*tribunal*) muhokamasi arzimagan gunoh uchun ham otuv, o'lim jazosini qo'llar edi.

**Natijada bolsheviklashtirish siyosatidan norozi bo'lgan mahalliy hukumat a'zolari va ba'zi askarlar o'z qurol-yarog'larini "bosmach" larga sotgan yoki hadya qilgan.** Jumladan: "Chorjo'y viloyatining sobiq muxtor vakil 11 miltiq bilan tutilib, Buxoroga yuborildi" deyiladi xabarlardan birida.

## ADOLATLI HUKM

1923-yil fevral oyi boshlarida Ostonqul Qiyomov, Hoji Ziyodullo, Otoboy Sobirlar a'zoligidagi harbiy tribunal bosmachilikda ayblangan Chori Nazar o'g'li, Erali Mo'min o'g'li, Saidqul Qoravulbegi, Jo'ra Kurbon, Haydarqul Jo'ralar ustidan sud hukmini chiqarishgan. Chori Nazar o'g'li "bir yillik qamoq va xalq foydasiga ishlab berish" jazosiga tortilgan. Erali Mo'min o'g'li aybsiz topilib oqlangan. Saidqul Qoravulbegi Anvar posho qo'mondonligida Boysun va Dushanbe uchun bo'lgan janglarda qatnashgan. Avval qizillar tomonidan o'limga mahkum etilgan. Mahalliy tribunal unga, "o'z aybiga" iqror bo'lganligi uchun 6 oy qamoq, 5 yil xalq foydasiga ishlab berish jazosini belgiladi. Jo'ra Qurbon va Haydarqul Jo'ralar "ashaddiy bosmachilar" bo'lsa-da, 3 yil qamoq, xalq foydasiga ishlab berish jazosini olishdi. Yuqoridagi holatdan ko'rinib turibdiki, millatdoshlarimizdan iborat harbiy tribunal vatandoshlariga nisbatan mumkin qadar shafqat ko'rsatib adolatli yo'l tutishga harakat qilgan.

## 5-FEVRAL - UMUMIY SAFARBARLIK KUNI

Respublikada harbiy an'analarni vujudga keltirish, askar va militsiya ma'naviyatini ko'tarish uchun bir qator tadbirdilar o'tkazilgan. 1921-yildan boshlab, **5-fevral Respublikada "Umumiy safarbarlik kuni" sifatida nishonlanadigan bo'ldi**. 1923-yil 20-avgustdan 20-sentabrga qadar Buxoro Respublikasida milliy armiyani mustahkamlash oyi o'tkazilgan. Mardlik va jasurlik ko'rsatgan askarlarni taqdirlash uchun 1922-yilning iyulida Buxoro Inqilobi Markaziy Ijroiya qo'mitasi ikki turdag'i nishon ta'sis

etdi. Birinchi nishon: tilladan bo'lib, sakiz qirrali yulduz, uning ichida ikkita hukumat bayrog'i, ustida esa respublika shiori yozilgan. Ikkinci nishon ham xuddi shu tartibda yasalib, faqat nuqradan qilingan".

## YETTI PUD OLTIN, 183 MING TANGA AJRATILDI

Hukumat qizil askarlar va militsiya moddiy ahvolini yaxshilash choralarini ko'rgan. "Buxoro axbori"da: "**Nozirlar sho'rosi harbiya va dohiliya (ichki) ishlar nazorati ixtiyoriga yetti pud oltin (4 000 so'm) berdi. Bu oltin askarlar va militsiyaga keragicha sarf etilgusidur**". Qizil askarlar joylashgan kazarmalarni ta'mir qilish uchun Iqtisodiyot sho'rosi tarafindan 183 ming tanga ajratildi. Ta'minot ishlari ikki oy ichida qilinmoqqa tegishlidur" kabi ma'lumotlar keltiriladi.

## QOG'ÖZDA QOLGAN REJALAR

Harbiy islohotlardan maqsad, respublika hududlarini qo'riqlay oladigan, mahalliy millat vakillaridan tashkil topgan zamonaviy armiya tuzish edi. Ayni paytda Qurolli Kuchlarni o'zimizda ishlab chiqariladigan qurol-yarog'lar bilan qurollantirish istagi ham yo'q emasdi, ya'ni **zamonaviy harbiy texnikani ishlab chiqarish ham istiqbolda rejajashtirilgan edi**. Inqilobi qo'mita raisi A. Oripov harbiy nozir vazifasini bajarib turgan vaqtida (1922-yil) **amir zamonidan qolgan miltiq va to'plarni ta'mirlashga ko'rsatma bergandi**. Lekin ko'p rejalar qog'ozda qolib ketdi yoki sarob bo'lib chiqdi.

## RAQAMLAR...

Respublikaning to'rtinchı yilida askarlar ta'minoti biroz o'nglangan, savodxonligi, harbiy tajribasi ortgan bo'lsa-da, armiyada juda katta kamchiliklar bor edi. Avvalo, harbiy xizmatchilarning asosiy qismi (*zobit va askarlar*) yevropaliklardan iboratligicha qolgandi. Said Ahroriyning yozishicha, 1924-yilga kelib: "Yerli Buxoro qizil askari 2 polk (2 000 kishi) bo'lgan".

Respublikaning birinchi yilida **30 mingdan 400 kishi, to'rtinchı yiliga kelib, butunboshli armiyada 2 000 jangchi mahalliy aholi vakili bo'lgani quvonarli hol emasdi**.

## AFSUSLANARLI HOLATLAR

Xalq militsiyasi va armiyada savodxonlik past darajada bo'lib,

ayniqsa bu holat mahalliy millat vakillari orasida ko'proq ko'zga tashlangan. Buxoro guzarlaridagi miliitsiya xodimlari aksariyat hollarda o'zlarini to'xtatgan odamlarning hujjatlaridagi yozuvlarni o'qiy olmas, yo'lovchilardan "Afandim, buni o'qib bering, nima yozilgan ekan? Tushuntirib bersangiz!" kabi murojaatlar qilishgan. "Bu butun ilm Buxoro shaharlaridagi madrasalarda berilib, xalqdagagi maorifga ehtiyoj ahamiyatsiz qoldirilg'onligi asosatidur" deb yozadi o'sha davr gazeta muxxbiri Bekboy.

**Armiya va miliitsiyada**  
**ma'naviy, axloqiy tarbiya ishlarida ham ayrim kamchiliklari ko'zga tashlanadi.** O'sha davr matbuoti bilan tanishar ekanmiz: "Chorjo'y shu'basi miliitsioneri Ro'zimurod Rahmat o'g'li mast bo'lib, o'ziga berilgan miltiqni yo'qtogan. U miltig'in yo'qtogani uchun jumhuriyat umumiy hibxonasiga 1 yilga qamoqqa hukm qilindi". "Askariy kazarma imoratlari qilg'usi tashkilot tarafidan imorat qilish uchun ko'p miqdorda berilg'on pullar o'zlashtirilg'on sababli qish sovug'i yaqinlashib, askarlar kazarmasiz qolg'onlar" kabi ma'lumotlarni o'qiyimiz.

Armiyada askar va zabitlarning sog'lig'i masalasida ham yetarli g'amxo'rlik qilinmagan. Chunki yuqori malakali harbiy shifokorlar yetishmasligi, ayni o'sha 1922-1923-yillarda Buxoroda "molariya" ("tan varaja", "Buxoro varajasi") kasali tarqalganligi bunga sabab bo'ldi. **Jangchilarimiz orasida molariya kasali tarqalishi tufayli ularni davolash uchun 36 ming oltin oqcha ajratildi. Ular italyan usulida davolanadurlar**, deyiladi bir xabarda.

#### IQTISODIY TANGLIKLAR

Respublikada 1922-yil oxiridan iqtisodiy ahvol og'irlashgan. Bu holatni 2 yil xalqqa soliq solinmay, soliq tizimi joriy qilinganidan, maorif nozirligiga ajratilgan mablag'lar kamaytirilganidan, davlat apparatin iki barobargacha qisqartirish tomon yo'l tutilishi kabi omillardan bilish mumkin. Ayni paytda harbiy kurslarda tahsil olayotgan kursantlar va armiyadagi askarlarning oilasi ham iqtisodiy jihatdan qiyngangan.

**F. Xo'jayev hukumati esa mahalliy millat vakillarini armiyada saqlab qolish uchun mumkin qadar choralar ko'rgan.**


"Harbiy kurs talabalari qaynotalaridan, agar yaqin fursatda qaytib kelmasang, xotiningni kutmagil, man uni o'z uyimga qaytarib olaman. Chunki ozuqasi yo'q, o'tini yo'q, kiyimi yo'q mazmunida xat olyaptilar. Mana shu mazmunda yozilg'on maktublardan stol ustini to'lib qoladur. Kursantlar esa besh kunlik, bir haftalik javob so'rab, arizalarini qalashtrib tashlamushlar" deb yozadi "Buxoro axbori".

Yuqoridagilardan tashqari harbiy kooperatsiyani tashkil etish, 1-Buxoro to'pchilar diviziyasini tuzish kabilarda bir qator to'siqlar vujudga kelib, kamchiliklarga yo'l qo'yildi.

**Xulosa sifatida aytish mumkinki, BXSR o'zining to'rt yillik tarixi davrida milliy Qurolli Kuchlarni shakkantirishga harakat qildi. Respublika rahbariyati tomonidan intizomli milliy armiya mustaqillikning asosiy omili va garovi deb hisoblandi.**

**Shodmon HAYITOV,  
tarix fanlari doktori.  
Kamol RAHMONOV,  
tarix fanlari nomzodi**

#### Tarix



## SOHBQIRONNING HARB SAN'ATI

Amir Temurning harbiy siyosati, shaxsiyati, kuch-qudratining asosi uning quyidagi so'zlarida mujassam: "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim". Demak, siyosat va boshqaruvda Amir Temur qilichga, ya'ni zo'rlikka faqat bir ulushgina e'tibor ajratgan. Uning bayrog'i esa doimo siyosat va tadbir bo'lib kelgan.

Amir Temurning harbiy san'at borasidagi buyukligi uning eng asosiy fazilati – buyuk davlat arboblining bir qirrasini tashkil etgan xolos. Zero uning harbiy siyosati bosh maqsadi – qudratli davlat va saltanat barpo etish ishiga xizmat qilgan. Masalaning bu tomoniga alohida urg'u berishimizning sababi bor. Chunki shu chog'gacha va ba'zan hozirda ham Amir Temurning faoliyatini haqida so'z ketganda uning harbiy sarkarda, lashkarboshiliga ko'proq e'tibor berilib, unda u qo'lg'a kiritgan harbiy yutuqlar haqida so'z ketgan. Bu bilan uning umri faqat urushlarda o'tganday bo'lib qoladi. Vaholanki, Shomiy, Yazdiy, Natanziy, Hofiz Abru va boshqa tarixchilar asarlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Amir Temur harbiy tadbirlar bilan to'g'ridan to'g'ri o'rta hisobda yilda bir necha oygina band bo'lgan. Qolgan vaqtini davlat va saltanat ishlariiga bag'ishlagan.

Amir Temur lashkarida har bir askar, har bir qism faoliyati, ya'ni maoshi, harbiy aslahalar bilan ta'minoti, xizmat pillapoyalaridan ko'tarilib borishi, navkar bilan uning begi o'rtasida xizmat muomalasi, urush paytlaridagi harbiy taktika kabi barcha masala va tadbirlar oldindan o'ylanib, muayyan bir tartibga solingen edi. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur lashkarida qat'iy xizmat va tashkiliy intizom o'rnatilgan, kim nima bilan shug'ullanishi, nimaga javob berishi aniq ko'rsatib yo'ylgan. Hatto mayda masalalar ham oldindan ko'rsatib o'tilgan. Masalan, oddiy askarning harbiy yurishga tayyorgarligidagi talablarni olaylik. "Yurish vaqtida oddiy askarlardan har o'n sakkiz kishi o'zi bilan birga bir chodir, har bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq o'qdon, bir qilich, arra, bigiz, bitta qop, juvdiz, bolta, o'nta igna va charm xalta olgan", deyilgan "Tuzuklar"da.

Xuddi shunga o'xshash bahodirlar, o'nboshilar, yuzboshilar, mingboshilar, amirlar uchun zarur hisoblangan qurol-aslahalar tafsiloti ham berilgan.

"Tuzuklar"da amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va boshqa harbiylarga maosh belgilash tartibi ham aniq ko'rsatilganini eslasak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, Amir Temur bo'lajak harbiy tadbirlarga, eng avvalo, tinchlik sharoitida, lashkarni har jihatdan ta'minlash, u to'g'rida qayg'urish orqali tayyorgarligini ko'rib qo'ygan. Bir so'z bilan aytganda, uning lashkardan, lashkarning esa undan ko'ngli to'q bo'lgan holda janglarga kirishilgan.

Amir Temur jang suratini ham oldindan rejalashtirib qo'ygani ma'lum. Chunonchi, u joriy qilgan tartibga ko'ra, agar g'anime lashkari o'n ikki mingdan ortiq, lekin qirq mingga yetmasa, lashkarboshilik shahzodalardan biriga yuklatilgan. Agar g'anime qo'shini qirq mingdan oshiq bo'lsa, u holda sohibqironning o'zi lashkarga boshchilik qilgan.

Sohibqiron harbiy yurishni boshlashdan oldin dushmanning Qurolli Kuchlari, mudofaa inshootlari, u yerdag'i ichki vaziyat haqida aniq va to'la ma'lumotga ega bo'lish maqsadida maxfiy xizmatchilarini yuborib turgan. Dushman to'g'risida zarur ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyingina yurishga taraddud ko'rilgan. Harbiy yurish yoki jang paytdi boshboshdoqlik, parokandalikning oldini olish maqsadida har bir bo'linma, guruh, qismning o'z maxfiy parollari bo'lgan. Shu orqali bo'linma, guruh, qismlar ichida maxfiylik ta'minlangan.

Amir Temur armiyasi taktik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan.

Razvedka a'lo darajada yo'lg'a qo'yilgan,

qismlarning janggohda yoki jangovar safda

talab darajasida harakat qilishi uchun

zarur tadbir va choralar ishlab chiqilgan,

ularni jang paytida tezkorlik bilan

boshqarishga alohida diqqat qaratilgan.

O'nlik, yuzlik, minglik va tuman

qo'mondonlarini tanlash masalasiga oliy

bosh qo'mondon mas'ul hisoblangan,

jang vaqtida qo'shin qanoqlarini

dushman hujumidan muhofaza qilish

va o'z navbatida, g'anime kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otiqlar bo'lgan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan.

Tog'li hududlarda jang olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil etilgan. Bunday harbiy qism Aleksandr, Gannibal, Chingizzon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix kabi atoqli sarkardalar qo'shinida ham bo'lмаган. Birgina Shayboniyxon armiyasida bunday qism mavjud edi va u to'lyuma deb nomlangan.

Amir Temur jahon tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida an'anaviy besh bo'lakdan farqli ravishda yettilaga bo'lib, joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik To'xtamish, Shayboniyxon singari sarkardalar tomonidan o'zlashtirilgan. Temuriylarga ko'plab zafarlar keltirgan bu harbiy taktikadan Shayboniylar, Ashtarxoniylar va O'rta Osiyo xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo'qon) o'zlariga moslashtirib foydalangan.

Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o'z vaqtining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Dushman mudofaa turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo'qqisdan zarba berish, qal'a, qo'rg'on va hisorlarning uzoq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha, keng ko'lamda qurshab olib, qishloq, shahar, tuman, viloyatlarni birin-ketin zabt etish, dushmani batamom yakson etgungacha ta'qib qilish, taslim bo'lgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va temuriylarga ko'plab zafarlar olib kelgan.

Qo'shin to'plash haqida maxsus buyruq (*tunqol*) e'lon qilingach, hukmdor tomonidan tuzilgan ro'yxatga binoan, jangchilar ot-ulovi, qurol-yarog'i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan to'planish yeriga yetib kelgan. Yetarli miqdorda qo'shin to'plangach, u ko'rikdan o'tkazilgan. Temuriylar davrida yurish yoki jangdan oldin lashkarni ko'rikdan o'tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash izchillikka aylangan. Qo'shining jangovar holatini nazardan o'tkazish imtihon qilish usuli sifatida e'tirof etilgan ov tadbirlaridan unumli foydalilanigan.

**Polkovnik  
Obidjon GAYIBNAZAROV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
markaz boshlig'i**

Alplar safidagi ayollar



Sport – jamiyatda sog'lom muhitni targ'ib etuvchi, insonni toblovchi, unga sabr-bardosh va chidamlilikni o'rgatuvchi, orzu-maqsadlari sari yetaklovchi muhim vositlardan biri. Bugun jismoniy tarbiya ijtimoiy omil sifatida tobora yuqori ahamiyat kasb etayotgani bois mamlakatimizdagi turli soha vakillari sportni o'z turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirmoqda.

Ta'kidlash joizki, yurt himoyasida sobit turgan harbiyalarimiz ham jangovar-xizmat vazifalarini to'laqonli ado etish bilan bir qatorda, jismoniy tayyorgarlik hamda sport mashg'ulotlarini chambarchas holda olib borayotganlari sabab har ikki sohada ham yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Ularning saflarida esa ayol harbiy xizmatchilarining ham borligi kishiga o'zgacha g'urur va quvonch bag'ishlaydi. Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari ansambl safida ko'p

yillardan buyon faoliyat olib borayotgan I darajali serjant Nigora Abdullayeva ham ana shunday matonatli va irodali ayollardan biri.

Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahridagi 6-umumta'lim mакtabida o'qigan qahramonimiz, jismoniy tarbiya, musiqa va matematika fanlarini yaxshi ko'rар, doimo a'lo baholarga o'qishga harakat qilar edi. Buvisi Hayrixon Mahmudovaning raqs san'atiga qiziqishi, o'zi ansambl tashkil qilib, chet el safarlariga borib kelgani, turli tadbirlarda "Tanovar" raqsini maromiga yetkazib ijro etishi, Nigoraning qalbida ham raqs san'atiga kuchli mehr uyg'otgan. U dastlab,

1995–2000-yillarda Farg'ona shahridagi san'at bilim yurtida, 2000–2004-yillarda Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida tahsil oldi.

2005-yilda "Sarvinoz" milliy raqs ansamblida ishlab yurgan Nigora O'zbekiston xalq artisti Rushana Sultanovaning taklifiiga ko'ra, Chegara qo'shinlari

ansamblida o'z xizmat faoliyatini boshladi.

- Esimni tanibmanki, raqs dunyosida yashayman. U mening borlig'im. Bir kun raqs tushmasam, harakat qilmamas, xuddi betob bo'lib qolayotganga o'xshayveraman. Shu sababli bo'lsa kerak, raqsga hamohang tarzda sport bilan ham muntaзам shug'ullanishga harakat qilaman. Umuman olganda, raqsning o'zi ham sportga o'xshaydi. Ular ikkisi uyg'un holda insonni nafaqat jismonan, balki ruhan toblab, irodali qilib boraveradi, - deydi qahramonimiz.

Tinib-tinchimaydigan Nigora raqs bilan bir qatorda, 2007-yildan qisqa masofaga yugurish, uzoqlikka sakrash va suzish sport turlari bilan ham muntaзам shug'ullanib, 2012-yildan buyon kuch tuzilmalari o'ttasida o'tkazib kelinayotgan musobaqalarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda. U shu vaqtgacha 25 dan ortiq medalni qo'lga kiritgan.

Yaqinda Davlat xavfsizlik xizmati ayol harbiy xizmatchilar o'ttasida o'tkazilgan yengil atletika turnirida I darajali serjant Nigora Abdullayeva 100 va 400 metr masofalarga yugurish yo'nalishida ishtirok etib, har ikki nominatsiyada ham faxrli birinchи o'rinni qo'lga kiritdi.

Hayot harakat demakdir, deya fikrlovchi hamkasbimizni samimiy qutlagan holda, kelgusida bundan-da yuqori marralarni zabit etishiga tilakdoshmiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

## Targ'ibot



# JAMIYAT TANASIDAGI SARATON

Termiz davlat universitetida viloyat huquqni muhofaza qiluvchi organi vakillari bilan hamkorlikda "Korrupsiya – jamiyat tanasidagi saraton" mavzusida davra suhbatи va targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Unda Termiz shahri prokurori o'rinosari Sherzod Turakulov, Adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Vohid Nazarov, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi

kurashish departamenti shahar bo'limi boshlig'i O'tkir Choriyev va boshqalar o'z ma'ruzalarida oliy ta'lim sohasida bu borada olib borilayotgan ishlar xususida to'xtaldi.

Bugun chin ma'noda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borilmoqda. Xususan, davlat idoralarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish hamda fuqarolar nazoratini kuchaytirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Talabalar va o'qituvchilar korrupsiyaga qarshi kurashishning

asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lishi lozim. O'qituvchilar halol va vijdongan mehnat qilib, bilim va tajribalarini shogirdlariga yetkazishi, talabalar esa faqat o'z mehnatlari evaziga bilim va baho olishi zarur. Agar ta'lim sohasida adolat ta'minlansa, jamiyatda malakali kadrlar shakllanadi va korrupsiya ildzi quriydi.

Muloqot davomida talabalar korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha o'z fikr va takliflarini aytdilar.

Jumladan, ta'lim tizimida shaffoflikni ta'minlash, elektron boshqaruv tizimlarini keng joriy etish, huquqiy savodxonlikni oshirish va korrupsiyaga qarshi targ'ibot ishlarini kuchaytirish borasida mulohazalar bildirildi.

**Jamshid NAZAROV,**  
Termiz davlat universiteti  
O'zbek filologiyasi fakulteti  
tyutori

Qadriyatlarin boqiy bo'lsin, Navro'z!

# YANGILANISH, EZGULIK VA TINCHLIK TIMSOLI

O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlari xalqlarining qadimi an'anaviy bayramlaridan biri Navro'zdir. Navro'zning sarchashmalari ajdodlarimizning koinot, Quyosh, Yerga bo'lgan e'tiqodlari asosida vujudga kelgan. Bundan to'rt-besh ming yil ilgari ajdodlarimiz Quyoshni eng buyuk kuch, hayot sarchashmasi, yorug'lik va issiqlik manbai deb bilgan, unga atab maxsus marosimlar o'tkazgan. Shu yo'sinda mitraizm – quyoshparastlik, uning zaminida esa otashparastlik shakllangan.

Navro'z – inson va tabiatni asrab-avaylashga, tinchlik, do'st-u birodarlik va hamkorlik kabi umumbashariy qadriyatlarini e'zozlashga chorlaydigan ulug' bayram. Navro'zning mazmun-mohiyatida insонни ulug'lash, uning qadri, izzat-hurmatini joyiga qo'yish kabi ezgu fazilatlar mujassamidir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday yozadi: "Navro'z – chinakam xalq bayrami, milliy o'zligimiz ko'zgusi, ma'naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismi. Ushbu qutlug' ayyomda turli nizo va adovatlar, gina-arazlar unutiladi, xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va ahillik tamoyillari yanada kuchayadi. Ana shunday beqiyos fazilatları tufayli Navro'z nafaqat mamlakatimiz, butun Sharq olamida zamonlar osha bezavol yashab kelmoqda. Shuning uchun ham Navro'z yurtimizda istiqomat qilayotgan bir yuz o'ttizdan ziyod millat va elat vakillarini bir oiladek birlashtiradigan go'zal bayramga aylandi".

**TARIXIY MANBALARDA QAYD ETILISHICHA**, buyuk ajdodlarimiz bo'l mish zardushtiyalar olovni Quyoshning Yerdagi zarrasi – farzandi deb bilib, qish va erta bahordagi marosimlarda katta gulxular yoqib, qish sovugi'ni "haydagan" va ko'klamni "chaqirgan". Bunday marosimlar qadimgi xalqlarda bo'lgan, keyinchalik ular dunyoning barcha hududlariga yoyilib, turli an'analar bilan boyitilgan.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlangani kabi: "Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram – sharqona yangi yil bo'l mish Navro'z ayyomi misolida yorqin namoyon bo'ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor quadrati va cheksiz saxovatining ko'p mingyillik milliy qiyofamiz, olyjanob urfatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda. Muxtar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tasdig'idir, desak, hech qanday

xato bo'lmaydi. Ko'hna tariximizni shu ma'noda ko'z o'ngimizdan o'tkazib, tahlil qiladigan bo'lsak, muhim va ibratlari bir fikrni takroran aytishga to'g'ri keladi. Ya'ni obobolarimiz ruhiy olamining tomirildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchanening havasini totib kelayotgan olyjanob fazilatlar asosida shakllangan".

Navro'z koinot va tabiat qonunlari, quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning tenglashishi, kunduzning uzaya borishi, tabiatning jonlanishi, bahorning kelishi bilan bog'liq. O'zbekiston hududida Navro'z asrlar davomida mazmunan chuqurlashib, shaklan boyib borgan. Dastlab, Navro'z bayramini o'tkazish o'troq dehqonlarda rasm bo'lgan, keyinroq ular orqali yarim o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatiga aylangan. Vaqt o'tishi bilan turli xalqlarda Navro'z bayramini o'tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan.

**TARIXIY MANBALARGA KO'RA**, Navro'zni bayram qilish Ahamoniylar davridan boshlangan. Navro'z bayramining paydo bo'lishi to'g'risida ma'lumotlar ko'p. Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida Navro'z bayramining paydo bo'lishini afsonaviy shoh Jamshid nomi bilan bog'laydi. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ma'lumot berishicha, bayram farvardinning oltinchi kuniga qadar davom etgan. Sosoniy podsholari olti kunda 6 toifa xalqni qabul etgan va tortiqlar ulashgan. Navro'z bayrami kuni mahbuslarni ozod qilish an'anasini ham bo'lgan. Umar Xayyomning "Navro'znama" kitobida yozilishicha, Navro'z bayrami o'tkazishning maxsus tartib-qoidasi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariyining "Devonulug'oti-t-turk" asarida Navro'zga bag'ishlangan xalq qo'shiqlari keltirilgan. O'rta asr tarixchisi Abu Bakr Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Navro'z kuni Siyovush qabri boshida odamlar xo'roz so'yishlarini va bunga uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tganini yozgan.

Hozir O'zbekiston hududida yashagan xalqlar Navro'zni yangi yilning boshlanishi deb quvonch bilan kutib olgan. Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari bir necha kun ilgari boshlangan. Bug'doyni undirishga qo'yilgan va uning maysasidan sumalak tayyorlangan,

ko'kat chuchvara, yalpix somsa kabi taomlar pishirilgan, uy-joy, ko'cha va ariqlar tozalangan, ko'chatlar ekilgan, otchopar, uloq, kurash singari xalq o'yinlari, sayillar o'tkazilgan, bahor haqida qo'shiqlar kuylangan. Navro'zning birinchi kuni qishloq joylarida bolalar to'p-to'p bo'lib xonadonlar eshigi oldida Navro'zga bag'ishlangan qo'shiq aytishgan. Xonadon egasi ularni sovg'a-salom va yeguliklar bilan siylagan. Bolalar yeguliklarning bir qismini qishloqdag'i beva-bechoralarga ulashgan. Bu udum hozir ham mamlakatimizning ayrim qishloqlarida saqlangan. Demak, Navro'z yangi yil bayramigina bo'lib qolmay, mehnat bayrami ham hisoblangan.

**Darvoqe, Navro'z falsafasining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, Navro'z xalq hayotidagi eng muhim kun hisoblangan. Chunonchi:**

1) Navro'z shunday ruhiy kayfiyatni vujudga keltiradi, unda (*yilning boshqa kunlariga nisbatan*) hamma xursand, shod va baxтиyor bo'ladi;

2) qadimdan bayramlar (*ma'lum vaqtida takrorlanib turgani uchun*) o'ziga xos vaqt o'lchovi hisoblangan. Shu jumladan, Navro'z ham vaqt o'lchovi sifatida xizmat qilgan, ya'ni yil boshini nishonlash vaqt kelganda, odamlar yana bir yil o'tganini his qilgan. Demak, Navro'z vaqtini chucher his qilish, e'zozlash, qadriga yetish uchun sharoit taratgan;

3) Navro'z hayotning eng yaxshi tomonlarini aks ettiradigan ko'zgu bo'lib kelgan. Ushbu kun kishilar eng yaxshi odatlarni namoyish qilish, chiroylib libos va kiyimlar kiygan, lazzatlari taomlar tayyorlagan, o'z qobiliyatlarini namoyish etgan, ko'tarinki kayfiyatda bo'lgan. Naql qilishlaricha, Navro'z kuni yomonlar – yaxshi, xasislar – saxiy, xunuklar – go'zal, go'zallar yanada go'zal bo'lib ketar ekan;

4) Navro'z jismoniy va aqliy mehnatdan ozodlik hamda turli majburiyatlardan erkinlik kuni hisoblanib, odamlar kundalik ish, vazifa, burch, tashvishlardan ozod bo'lgan. Bayram kunlari barcha qiyinchiliklar, dard-u alamlar unutilgan, kishilar shod-u xursandlikda bo'lgan. Bu kuni odobsizlik, o'g'irlik, zo'ravonlik, fisq-u fasod kabi yaramas odatlar unutilgan;

5) Navro'z kunida tenglik hukm surgan. Hamma bir qozondan ovqat yeb, bir xil tomosha ko'rgan, birligalikda sayilgohlarga chiqib, sayr qilgan;

6) Navro'z kuni – tinchlik kuni hisoblangan, urushlar to'xtatilgan. Xalq odatlariiga ko'ra, bu kuni xafachiliklar unutilib, o'zaro arazlashganlar yarashgan, tanishlar do'stlashgan, hamjihatlik, do'stlik ruhi barqaror bo'lgan;

7) Navro'z kuni vujudga kelgan ruhiy ko'tarinkilik kishilarni ertangi kunga umid bog'lashga, kelajakka ishonch bilan qarashga, hayotni yanada go'zal qilishga undagan.

**DARVOQE**, tarixiy taraqqiyot jarayonida bosqinchilar xalqning eng sevimli Navro'z bayrami orqali o'z g'oyalarini singdirishga ko'p harakat qilgan. O'lkaza islam dini kiritilganidan keyin Navro'z bayrami man qilinsada, ammo xalq sevimli bayramini nishonlashda davom etgan. O'rta Osiyo va Eron xalqlari arab xalifaligi hukmronligidan qutulgan davrdan (IX-X asrlar) boshlab, Navro'z bayramini o'tkazish yana rasmiy tus olgan. Ayniqsa, sobiq Ittifoq davrida Navro'zning ahvoli ayanchli bo'ldi. Xalqning milliy an'analar sho'rolar maqsadiga xizmat qilmagani uchun, unga qarshi rasmiy va norasmiy kurash olib borildi. Biroq Navro'zni nishonlash to'xtamadi. An'analar uchun kurash millat ravnraqi uchun, millat ravnraqi uchun kurash esa mustaqillikka erishish uchun kurashga aylandi. Ma'lumot o'mida aytish kerakki, 1989-yil 28-fevralda O'zbekistonda Navro'zni umumxalq bayrami sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. 1990-yildan esa 21-mart Navro'z milliy xalq bayrami kuni deb e'on qilindi.

Xullas, mustaqillik sharoitida qayta tiklanib, istiqlol g'oyalari bilan sug'orilib, mazmunan va shaklan boyigan Navro'z bilan birga yangilanish, ruhiy poklanish, tabiiy va madaniy boyliklarni saqlashga chorlash, atrof-muhitni tartibga solish, obodonlashtirish, aholi o'rtasida mehr-muruvvat, do'stlik, ahillik, birodarlikni mustahkamlash, millatlararo hamjihatlik, totuvlikni rivojlantirish omillari ham kuchaydi. Navro'z xalqimiz uchun poklanish, ruhanish, yangilanish va ma'naviy kamol topish bayrami bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, bunday noyob va beba boyligimizni hamisha ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz darkor.

**Bobur NEGMATOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik kafedrasini  
professori**






Oila – inson uchun baxt qasri, halovat maskani. Inson qancha ulg'aymasin, qayerga bormasin, uning qalbini ilitadigan, ruhini parvarishlaydigan yagona makon bu uning oilasidir. Lekin afsuski, ba'zan u yerda nizo va kelishmovchilik shamollari esadi. Ya'nii oila degan muqaddas maskan ham turli sinov va musibatlardan mustasno emas. Eng yomoni nima bilasizmi? Biz mehr maskani deb e'zozlaydigan oilada yuraklarni ezadigan og'riqli so'zlar, ko'zlarga yosh keltiradigan kelishmovchiliklar yuz beradi.

Xo'sh, aslida oilaviy nizolar qanday kelib chiqadi? Ular inson ruhiyatiga qanday ta'sir qiladi? Va eng muhim, ularning yechimi nimada? Quyida shu savollarga javob izlaymiz.

**Moliyaviy muammolar** – ko'pgina oilalarda kelishmovchiliklarning bosh sababi iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, qarzdorlik va oila byudjeti bilan bog'liq muammolar. Mablag' yetishmasligi ko'pincha er-xotin o'rtaida tushunmovchilikka, hatto ochiqdan ochiq janjallarga sabab bo'ladi.

**Muloqotdagi kamchiliklar** – ba'zi oilalarda er-xotin bir-biri bilan samimiy muloqot qilmasligi, qalban yaqin bo'lishga intilmaslik ham munosabatlarning yomonlashishiga sabab bo'ladi. Lekin ochiq muloqotning yo'qligi, bir-birini eshitmaslik va tushunmaslik oilaviy muhitni murakkablashtiradi.



## - BARQARORLIK POYDEVORI

**Ishonch va vafo muammolar** – oilaviy munosabatlarda ishonch va vafo eng muhim tamoyillardan. Bir tomonning xiyonati, yolg'oni yoki muhabbatining susayishi – oilani yemirishi mumkin bo'lgan xavfli holat hisoblanadi.

**Rollar va mas'uliyatlarning noaniqligi** – oilada har bir a'zoning o'z o'mni va burchi bo'lishi shart. Agar kim nima uchun mas'ul ekanini bilmasa yoki zimmasidagi vazifalarni bajarmasa, bu ham kelishmovchiliklarga olib keladi.

**F a r z a n d t a r b i y a s i d a g i kelishmovchiliklar** – bolalar tarbiyasida er-xotinning yondashuvি turlicha bo'lishi ular o'rtaidagi nizolarga sabab bo'ladi. Masalan, bir tomon qattiqqo'llik tarafdoi bo'lsa, ikkinchi tomon mehribonlikni ustun qo'yadi. Qarabsizki, qarama-qarshilik paydo bo'ladi.

**Q a r i n d o s h l a r a r a l a s h u v i** – oilaviy totuvlikka ta'sir qiluvchi omillardan yana biri qaynona-kelin, qaynota va boshqa qarindoshlarning oila hayotiga ortiqcha aralashuvi. Bu ham nizolar kelib chiqishidagi eng katta muammo sanaladi.

**Shaxsiy cheklovlar va erkinlik masalasi** – oilada har bir

insonning shaxsiy hayoti, erkinligi va hududiga hurmat bo'lishi zarur. Agar bu hurmat yo'qolsa, oilada kelib chiqadigan tushunmovchiliklar chuqurlashadi.

### NIZOLARNING PSIXOLOGIYAGA TA'SIRI QANDAY?

Bunday oilaviy nizolar faqat munosabatlarni yemiribgina qolmay, balki inson salomatligi va ruhiyatiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan:

**Stress va ruhiy charchoq.** Kundalik janjallar, tortishuvlar oila a'zolarida asabiylik, ruhiy charchoq, tushkunlik holatini keltirib chiqaradi.

**Depressiya va yolg'izlik hissi.** Oiladagi doimiy kelishmovchiliklar odamni ichki tomonidan yemirib, o'zini yolg'iz va keraksiz his qilishga olib keladi.

**Bolalar psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi.** Ota-onalarning janjallar farzandlar ruhiyatiga katta zarba beradi. Bunday muhitda o'sgan bolalarda qo'rquv, ishonchszilik, aggressiya va boshqa salbiy his-tuyg'ular shakllanishi mumkin.

**Jismoniy salomatlikka tahdid.** Uzoq davom etgan stress holati yurak qontorim kasalliklari, yuqori qon bosimi, uyqusizlik, immunitetning pasayishi kabi og'ir muammolarga sabab bo'ladi.

### BUNDAY KELISHMOVCHILIKLARNING YECHIMI BORMI?

**Ochiq va samimiy muloqot.** Barcha muammolarni hal etishning eng yaxshi yo'li bu ochiq va samimiy muloqotdir.

Bunda er-xotin bir-birini tushunishi, chin yurakdan tinglashi muhim ahamiyatga ega.

**O'zaro hurmat va empatiya.** Oila a'zolari o'zaro hurmat va bag'rikenglikni unutmasligi shart. Bir-birini tushunishga harakat qilish, empatiya hissini namoyon etish – oilaviy muhitni iliq va samimiy qiladi.

**Kechirimlilik va sabr.** Oilada kechirimlilik va sabrlilik asosiy hayotiy qoidalardan bo'lishi zarur. Xatolarni kechira olish va bir-biriga imkoniyat berish oilaviy muhabbatni mustahkamlaydi.

**Birgalikda yechim izlash.** Oilaviy muammolarga birgalikda yondashish, har ikki tomon uchun manfaatli bo'lgan yechimlarni topish muhabbat va totuvlik garovidir.


**Psixolog maslahati.** Agar oilaviy muammolar chuqurlashsa, mutaxassis – oilaviy psixologga murojaat qilish tavsya etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oilaviy munosabatlarga putur yetkazmaslik, uni asrab-avaylash har birimiz uchun eng oliy burchdir. Shunday ekan, oilaviy nizolarning oldini olish uchun o'zaro hurmat, ishonch va mehrni asrab-avaylaylik. Agar oilada totuvlik va osoyishtalik bo'lsa, uning bag'rida voyaga yetayotgan farzandlar ham sog'lom, kamolotli, baxtli inson bo'lib ulg'ayadi. Har birimiz shu haqiqatni unutmasligimiz shart!

**Mayor Avaz AZIMOV,  
harbiy qism psixologi**

# FONIALI O'LIM TOPGAN

SAROV SHOIRI YOXUD MIRZO HAYIT SAHBO



XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro jadidchilik harakatlariga ma'lum darajada xayriyohlik bildirgan, hamkorlik qilib, ularning g'oyalarini, ayniqsa vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik harakatlarini qo'llab-quvvatlagan shoir, yozuvchi va boshqa qalamkahshlar 200 ga yaqin bo'lgan. Mazkur davrda Buxoro amirligida Mirzo Sodiq Munshiy, Mirzo Ato, Muhammad Nishotiy, Mujrim Obid, So'fixo'ja So'fiy, Bebek, Vozeh, Savdo, Muztarib, Iso Mahdum Buxoriy, Muhammad Siddiq Hayrat, Abdurahmon Tamkin, Sahbo, Ya'qub ibn Doniyol Buxoriy, Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif, Muhammad Olim Buxoriy, Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy kabi shoir va tarixchilar ijod qilgan.

Zamonning ijtimoiy illatlarini, amir-u amaldorlarning adolatsizliklarini o'z ijodlarida keskin tanqid qilgan Qori Rahmatulloh Vozeh, Shamsiddin Shohin, Ahmad Donish, Abduqodirxoja Savdolar orasida millatimiz oydinlaridan Mirzo Hayit Sahbo ham bor edi.

Ismi sharifi Mirzo Hayit, "Sahbo" taxallusidir. "Sahbo" qizil may ma'nosini bildiradi. Mirzo Hayit Sahbo Buxoroning Vobkent tumanida tavallud topib, Buxoroga o'qishga keladi. Afzal Pirmasti Sahboga quyidagicha ta'rif beradi: "U shunday mard kishiki, nihoyatda donishmand, o'ta xushmuomal, himmati oly, marhamati baland, parhezkor, nihoyatda tetik, aqlili, she'rshunoslik va baytshunoslikda tengi yo'q, tabiatni nozik, zehni o'tkir, she'rлari g'oyat go'zal, so'zlarifasohatli... devoni mukammal... asarlari ommaga maqbul va manzur... She'rining ta'biri va tahriri benihoya nozik, rang-barang, turkiy va tojikcha g'azzallari mazmunan nihoyatda xo'b, qofiyalari benihoya marg'ub..."

Sahbo madrasa xatmidan oldinroq Abdulahad Karmana hokimi bo'lgan davridayoq uning darboriga ishga olinib, turli kichik mansablar tortiq qilinadi. Ehtimol, valiahd shahzoda va Sahboni she'rga, adapiyotga mehr yaqinlashtirgandir. Har holda ularning o'zaro munosabatlari juda yaxshi bo'lgan. Abdulahad Sahboning mard va tantiligini, salohiyatini qadrlagan.

Sahbo Buxoro adapiy muhitining rahnamolaridan biri bo'l mish Latifjon Mahdum xonardonidagi shoir va fazil kishilar suhabatlarida ishtirok etib turgan. U muashshax shaklidagi 40 ta she'rining 8 tasini o'zbek tilida yozadi. Muashshax arabcha "vashshax" – "kamar", "belbog'ich" so'zidan olingen bo'lib, ma'nosи "bo'yни bog'langan" demakdir. Muashshax she'rning

har biri misra, bayt yoxud bandining boshlanish harflaridan biror narsa yoki shaxsnинг nomi kelib chiqadi. Muashshaxlar qit'a, ruboiy, muammo, g'azal, musammat kabi turli janrlar shakllarida yaratilgan. Shoir 3 ta muashshaxdan tashqari, 37 ta muashshaxga o'z taxallusini yozib qoldirgan. Shoirning 35 ta muashshaxi g'azal shaklida, 5 tasi esa muhammas shaklida yozilgan. Mirzo Hayit Sahbo o'zining muashshaxini 5 kishi nomi bilan tuzgan. Birinchisi Abdulqodir (Abdulqodir Mahdum madrasasi muallimi), ikkinchisi Kulijon (Mirzo Mustafaquli, Mullo Bo'riboyning o'g'li), uchinchisi Ochchildi (Mullo ochchildi, mulla Bayyo o'g'li), to'rtinchisi Ochchildi (Qubodiyonning teriga ishlov beruvchi ustasi) va beshinchisi Mansur (Qubodiyon qozisi). Ularning har biri Buxoroda ham, Qubodiyonda ham katta obro'ga ega bo'lishgan.

Abdulahadxon Buxoroga amir bo'lgandan so'ng ham unga o'z darborida eshik o'g'asi, mirzolik, munshiylik mansabi va to'qsabolik unvonlarini beradi. Lekin Sahbo amir darboridan hech qanday maosh olmay, qashshoqlikda yashaydi. Boshqa amaldorlardek xalq hisobidan boylik to'plash, xalqni talash kabilardan ancha uzoq edi.

1908-yilning 23-oktabr Abduvohid Munzim Buxoroda Sadreddin Ayniy bilan Sallohxona guzarida joylashgan hovlisining mehmonxonasida tashkil etgan yangi usul maktabi Ostonaqul qo'shibegi tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlardan birida Burhoniddin rais tomonidan bid'at va haromdir, deya tanqid qilingan. Buxoro bosh mirshabi Mirza Sahbo majlisida qatnasha turib, "Ushbu maktab musulmon bolalari uchun lozim va foydalidir. Buni yopmoq, islomga xiyonat va musulmon bolalari

haqida jinoyatdir. Men umid qilamankim, bu ishga jasorat qilmasangiz kerak", deya raisga qarshi chiqqan.

Sahbo hamma vaqt amirning darboridagi amaldorlarni bo'rilar to'dasiga o'xshatadi. Hatto amirning o'zi ham mamlakat obodonligiga ahamiyat bermayotganini, ayshishratdan bosh ko'tarolmayotganini, amaldorlar bundan foydalaniib, xalqni talayotganlarini, amir sardorlari bo'lgan chet el (Rossiya) mansabdorlarining malayi ekanini o'zining hajviy she'rlerida goh ochiq, gohida yashirin bir suratda bayon qiladi.

Mirzo Hayit Sahboning hajviy asarlari va uning ma'rifatlari xislatlari, haqgo'yligi amirga hech yoqmas edi. Amir Olimxon davriga kelib, Sahboga pastroq mansab berilib, darbordan haydaladi va shahar ro'di (Shaxrud)ning mirobliq mansabiga tayinlanadi. Chunki miroblar suvlarni puldorlarga sotish bilan kun ko'rар edi, ularga hech qanday maosh to'lanmas edi. Lekin Sahbo qanchalik qashshoqlikda yashasa ham, obfurushlik qilmadi. Dehqonlarga haqiqat yuzasidan suvlarni ularning yerlariga navbat bilan barobar taqsimlar edi. Xalq undan rozi bo'lib, uning obro'si kundan kunga oshaverdi. Amir ikki yildan keyin bu ishdan olib, shahar mirshabligi, ya'ni shahar politsiya mahkamasi boshlig'i vazifasiga tayinladi. Mirshablik mansabi miroblikdan ham battar edi. Chunki agar mirob puldorlarga beradigan bo'lsa, mirshab o'g'rilar va kissavurlarning hisobidan o'z maishatini o'tkazar edi va ular bilan sheriklik qilib, jazolamas edi.

Shu murdor ishlardan o'z maishatini o'tkazar edi. Amirga ham shu murdor poralar hisobidan peshkash yuborar edi. Sahbo bu ishda kamoli poklik bilan xizmat qilib, uyidagi ortiqcha ashyolarini sotib, qashshoqlik bilan kun ko'ra boshladi. Ammo o'g'ri va kissavurlar bilan hech bir sherikchilik qilmadi, ularni agar xohlasalar nasihat qilib, bu nojo'ya harom ishlardan qaytarishga undadi, shaharda o'g'ri va kissavurlar, qimorbozlar ancha kamaydi. Amirga peshkash yubormadi. Chunki peshkash yuborish uchun murdor, nojo'ya ishlarga qo'l urishi kerak edi. Uning mirshablik davrida shahar va uning atrofidagi qishloq xalqlari osuda hayot kechira boshladи. O'g'rilik hodisalarini tamomila kamaydi.

Amir uni butun ishlardan bo'shatib, kichik amaldor vazifasiga tayinlaydi. 1915-yilda shahar mirshablar mahkamasi boshlig'ining buyrug'i binoan, unga gazeta o'qish taqiqilanadi. Keyinchalik xonanishinlik (uy qamog'i)ga solinadi. Sahbo xonanishinlik vaqtida amir va uning darborining poraxo'rлиgi, harom-u harish ishlarni qilganliklari uchun o'z hajviy she'rлari bilan tanqid qila boshlaydi. Shoir yordan muruvvat kutarkan, goh-goh zamonning bevafoligidan, xalq orasidan insof, mehrshafat ko'tarilganidan nolyidi. "Sen ulusdan, ey ko'ngul, mehr-u muhabbat izlama", deb yozadi, "jabr-u zulm bilan Sahboning ahvoli fano" bo'lganini ma'lum qiladi.

Imperatorlik siyosiy agenti gumashtalari ham Sahbo kabi hur fikrli kishilardan qo'rqr edi. Ular 1915-yilda amir va qushbegi mamlakatidagi amir siyosatiga va Rossiyaning Buxoro ishlari aralashuvini tanqid qilayotgan kishilarni chaqirib, ulardan tilxat olish, ularni qattiq nazorat ostiga olishni buyurdi. Shunday tilxat Sahboden ham olindi.

Rossiya elchixonasi vakillari Sahboni chaqirib suhbatlashdi. U o'z so'zida Buxoro xalqining qashshoqligiga, uning noroziligiga birinchi bo'lib Buxoroda o'z hukmini o'tkazayotgan Rossiya va uning gumashtasi bo'lgan amir sababchi ekanini baralla, qo'rmasdan aytadi.

Amir hukumati qotilligi bilan o'ziga dushman deb bilganlar bilan hisoblashdi, ulardan o'ch ola boshladi. Ochiqdan ochiq kesish, so'yishlar, salgina shubhalik bo'lgan kishilarga "ur-yiqitlar" boshlandi. Qon bilan mast bo'lgan amir hukumati ikkiuch haftaning ichida faqat jadidlar va yosh buxoroliklar bilangina emas, balkim Ovrupo tahsilini ko'rgan, gazeta o'qiydigan va shu sababli o'ziga qarshi va teskari harakatchi bo'lib ko'ringan butun kishilar bilan hisoblashdi. Hammasi jazoladi, ular bilan vahshiyarcha ishlar qildi. Mana shu so'yish va kesishlar vaqtida jadidlar va yosh buxoroliklardan hamma ularga xayrixoh bo'lganlardan jami 1 500 kishi dunyodan o'tdi. O'ldirilganlar ichida amirning amaldorlaridan juda ko'p kishi bor edi. Ulardan aymiqsa, mashhurliklari orasida Mirza Mustafo, Nasrullobek (17 kishilik oilasi bilan), Mirzo Ahmadbek (o'g'li bilan), hoji Zakariyo Azimov, Hoji Dodhoh, Islomqul To'sqabo, Qozi Abdusamat, Qozi Saidjonlar qatorida Mirzo Sahbo ham bor edi.

1917-yil aprel voqealaridan keyin Sahboni Ark obxonasida amir farmoni bilan qamaydilar. Bir necha oydan keyin amir farmoni bilan Qubodiyonga surgun qilinadi. Kolesov voqealaridan keyin o'sha yerda 1918-yilda fojiona qatl etiladi. Sadreddin Ayniy uning "yangilik va haqgo'ylik qurban" bo'lganini ta'kidlagan. Dastavval Sahboni Miri Qubodiyon qal'asi devori ostida toshbo'ron qilib o'ldirishgan, so'ngra mahalliy hokim Muhammad Rahimbek buyrug'i bilan jasadini otning dumiga bog'lab, echkiga aylantirib, Xo'jag'ozyon tog'i etagiga olib borgan. Aytishlaricha, amir uni ko'mishga qo'yagan. Yuqori G'uzorlik keksa Mullo Muxtorning aytishicha, marhum shoirning qonga belanib, ozib ketgan jasadini ba'zi mehribon va xudojo'y kishilar olib kelib, Qiyot Qubodiyon qabristoniga yashirinchada dafn etishgan. Shoirning qabri Qiyotyan qishlog'idan 2 kilometr uzoqlikda joylashgan. O'sha davrdagi dahshatli vaziyatda shoirni dafn etishga hamma ham jur'at eta olmagan.

1920-1924-yillarda Buxoro shahrining Labi hovuz dahasi Istemur mahallasidagi shoir yashagan ko'cha Sahbo nomi bilan yuritilgan. 1980-yilda Sahboning o'z qo'li bilan ko'chirilgan jami 550 turkiy va forsiy she'rлardan iborat devoni topilgan.

Sahbo qatl etilgan Qubodiyon hozirgi kunda Tojikiston Respublikasi Xatlon viloyatiga to'g'ri keladi. Xalqimizning g'ururli farzandiga hurmat-ehtirom ko'rsatish, uning qabrini tanitib, obodonlashtirishga majburmiz. Chunki ozodlik va ta'lim yo'lida shahid bo'lgan yozuvchi, olim, atoqli davlat arbobining qabri ziyyaratgohga aylantirish ham qarz, ham farzdir.

**Shavkat BOBOJONOV,**  
Toshkent davlat yuridik  
universiteti dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

Bir o'q bilan ikki nishon

# JAHON ARENALARIKA MUNOSIB HARBİY SPORTCI

*Harbiy sportchilar – mardi maydonlar,  
Alpomish avlod i dostonlar.  
Siz chapdast botirsiz norg'ul yengilmas,  
Sha'ningizga faxr etar osmonlar.*

2018-yil, Qozog'iston Respublikasida sportning aralash jang yo'nalishida Osiyo championati bo'lib o'tmoqda. Yigirmadan ziyyod davlatdan ishtirok etayotgan yuzlab sportchi orasida Toshkent oliv umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti (*hozirgi Qurolli Kuchlar akademiyasi*) kursanti Kozimjon Ismoilov ham bor. Bellashuvlar murosasiz kechdi. Qizg'in bahslar so'ngida O'zbekiston vakili, bo'lajak ofitser Ismoilov g'oliblik shohsupasida qad rostladi. Bunday hayajonli daqiqalarni so'z bilan ifodalash mushkul. Qo'lingda hilpirayotgan Vatan bayrog'i, dupurlayotgan yurak hayajoniga oshufta Vatan madhiyasi, yurt ishonchidan qarog'larda aks etayotgan faxr-ifixor tuyg'usi...

## BOLALIKDAN SPORTGA QO'YILGAN QADAM

– Dada, meni karate to'garagiga olib boring, sportchi bo'lmoqchiman, – yetti yoshli Kozimjon ishdan qaytgan dadasiga bolalarga xos yalinchoq ohangda maqsadini yetkazdi. – Maktabimiz oldidagi kollejda shunday to'garak bor ekan.

Endigina maktabga borgan o'g'ilchasingin gapidan Qobil aka hushyor tortdi. "Ot izini toy bosadi, deganlari shu ekan-da", xayolidan o'tkazdi. – Axir u ham yoshlik chog'larida bir muddat karate,



Sherzod SHARIPOV

sambo, dzyudo bilan shug'ullangan, yuksak orzular qilgan. Ammo uning champion bo'lish orzusini yuzaga chiqmadidi, hayot ummoni to'lqinlarida yo'q bo'lib ketdi.

– Sportchi bo'laman degin, – bolasinging iltimosiga quloq tutdi u. – Agar maktabdagi o'qishlar a'lo bo'lsa, sen aytgan to'garakka olib boraman.

– Albatta, yaxshi o'qiyman, – xursandligidan hayajonlangan ko'yidadasiga va'da berdi bolakay.

Otasi so'zining ustidan chiqdi, karate to'garagiga muntazam ishtirok etishi uchun unga imkoniyat yaratdi. Vaqt o'tib, o'g'ilchasingi iqtidorni sezgan Qobil aka uni Namangan shahridagi Karate federatsiyasiga (*hozirda O'zbekiston milliy karate federatsiyasi*) olib bordi. Yosh bola uchun haftada uch kun shaharga qatnab shug'ullanishning o'zi bo'lmaydi. Shu sabab Kozimjon 3-sinfdan boshlab o'qishini Namangan shahridagi umumta'llim maktabida davom ettirdi va federatsianing iqtidori ishtirokchisiga aylandi. Dastlab, shahar va viloyat sport musobaqalarida championlikni qo'ldan bermagan yigitcha 2004, 2005, 2008 va 2011-yillarda yoshlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston championatida ishtirok etib, har gal g'oliblik shohsupasiga sardorlik qildi.

## HARBİYLIK SARI QADAM

Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidagi Ququnboy qishlog'i. Qishloqda Qobil aka va Zamiraxon opa xonadonining o'z o'mni va nufuzi bor. Maqolamiz qahramoni kapitan Kozimjon Ismoilov mana shu go'shada voyaga yetgan. Qahramonimizga qisqacha ta'rif beradigan bo'lsak, qishloqda birinchilardan bo'lib egniga harbiy libos kiygan ofitser yigit, bir qator sport musobaqalari championi, "Dovyurak jangchi" ko'krak nishonining ilk sohibi. Shuningdek, sport ustasi, 1-DAN qora belbog' sohibi, jahon championlarining jonkuyar ustozi. Ayni damda kapitan Kozimjon Ismoilov Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qismida jismoniy tayyorgarlik va sport bo'limi boshlig'i lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Kozimjonnini oilada yolg'iz o'g'il ekanini inobatga oladigan bo'lsak, uning harbiy xizmatchi bo'lish maqsadini otanasi qanday qabul qilgan? Ularni suhbatga tortamiz.

– O'g'lim harbiy bilim yurtida o'qish niyatini aytganida qarshilik qilmadim, – deydi Qobil aka. – Avvalo, undan irodali yurt

himoyachisi chiqishiga ishondim. Negaki maktabda yaxshi o'qigan, yoshligidan sport bilan shug'ullangan uchun irodasi toblangan, jismonan chiniqqan. Shunday bo'lsa-da, unga harbiylik mashaqqatlari kasb ekani, harbiy soha egalariga oson emasligini, uddalay olsagina harakat qilishini aytdim. Uning o'ziga bo'lgan ishonchini bilganimdan keyin rozi bo'ldim. Hozirda Vatan himoyachisi bo'lish bilan birga, harbiy sportchi sifatida ham ko'plab yutuqlarga erishdi. Bundan xursandmiz. Har bir ota-onaga farzandining yutuqlaridan faxrlanish, kamolini ko'rish nasib etsin.

– Kozimjon bolaligidan kirishuvchan, tirishqoq, mehnatkash bo'lgan. Yaxshi o'qish, sport bilan shug'ullanish bilan birga, uydagi ishlarga ham ulgurardi. Keyin o'g'lim ortga chekinadigan bola bo'lмаган, – deydi Zamira opa. – O'g'lim oldiga maqsad qo'ydimi, erishishga harakat qiladi. Uning harbiy bo'lish niyatini men ham qo'llab-quvvatladim. Inson o'zi qiziqqan kasbda ishlashi, undan ko'ngli to'lishi kerak. Unga doim to'g'ri, halol bo'lishini, halollikda baraka ko'pligini aytaman. Harbiy xizmatchi va harbiy sportchi sifatida yana ko'plab yutuqlarga erishishiga ishonaman.

## HARBİY SPORTCHI MAS'ULIYATI

Harbiy sportchi zimmasida ikki mas'uliyat bo'lishi tabiiy hol. Birinchisi, ilkidagi Vatan tinchligi va hurligini himoya qilishdek zahmatli burch, ikkinchisi, jahon arenalarida yurt sha'nini yuksaltirish. Har ikkisi ham mustahkam iroda, bilim va iqtidor, tajriba va fidoyilikka tayanadi. Kapitan Kozimjon Ismoilov mana shu fidoyilar safidagi harbiy xizmatchilardan biri. Uning harbiy sohadagi faoliyatiga 6 yil bo'lyapti. Bugun uning shogirdlari jahon championlari. Bugun harbiy qismida tashkil etilgan sport to'garaklariga a'zo bo'lgan yuzlab bolakaylor – bo'lajak championlar Kozimjon boshchiligidagi sport ustalaridan tahsil olmoqda. Bu borada harbiy sportchining so'zlariga quloq tutamiz:

– Avvalo, harbiy sportchi ekanidan faxrlanaman. Jahon arenalarida ham harbiy sportchilar ajralib turadi. Bolalik chog'imdan murabbiyim Ayubxon Toshboyevdan karate sirlarini o'zlashtirib, ko'p muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsam, harbiy bilim yurtiga kirganimdan keyin boshqa turdag'i sport yo'nalishlarda ham o'zimni sinab ko'rdim. Kursantlik davrimda mening sportga bo'lgan ishtiyoyimni sezgan komandirlarim sport mashg'ulotlariga jaib etdi. Qo'ljangi, aralash jang, tosh ko'tarish kabi harbiy sportning barcha yo'nalishlarida shug'ullanib, yaxshi natijalarni qo'lga kiritdim. Ustozlarim sabab Osiyo championi, O'zbekiston championi, qo'ljangidan sport ustasi bo'lish nasib etdi. Katta yutuqlarga erishgan harbiy sportchilarimiz talaygina. Harbiy qismida bolalar uchun ochilgan to'garaklarda nafaqat harbiy xizmatchilarning o'g'il-qizlari, balki sportga ishtiyogi baland bolalar uchun barcha sharoit yetarli. Bepul tashkil etilgan bu to'garaklarda 200 dan oshiq bola milliy kurash, qo'ljangi, boks, sport tennisi, tosh ko'tarish, karate, badminton kabi bir qator yo'nalishlarda shug'ullanib kelmoqda.

Qaysi bir soha vakili bo'lmasin, avvalo, oиласида halovat topadi. Kozimjon ham xizmatdan horib qaytganida mayin tabassum ila kutib oladigan rafiqasi Shohidxon, qo'lchalarini cho'zib unga talpinadigan o'g'ilchasi Muhammadqodirning borligi charchoqlarini aritadi. Ota-onasi esa o'zi takidlab o'tganidek, unga motivatsiya, ya'ni ruhiy quvvat, ishonch va shiojat baxsh etadigan tengsiz mehribonlaridir. Kapitan

Kozimjon Ismoilovning orzulari ro'yobi hali oldinda. Bir so'z-la aytganda, uni va shogirdlarini jahon arenalari kutmoqda.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"

Mulohaza



# BUGUNGI KUN VA BOLALAR ADABIYOTI

Bolalik – inson hayotidagi eng yorqin, eng teran xotiralarga boy davr. Bu davrda bolalar olamni anglaydi, tushunishga harakat qiladi va o'z xayollarini shakllantiradi. Aynan bu jarayonda ertaklar muhim rol o'yaydi. Chunki ertaklar bola qalbiga nur, ongiga tiniqlik bag'ishlaydigan muhtasham ma'nnaviy qudrat, eng qimmatli xazinadir. U nafaqat farzandlarimiz qalbiga o'zining chiroli va mazmunli tili bilan jasorat, vatanparvarlik, matonat, umid va ishonch urug'in'i sevadi, balki ularning yuragini eng sof his-tuyg'ular bilan boyitadi. Qadimdanoq xalqimiz farzand tarbiyasini hikmatli ertaklar, rang-barang afsona va qissalar orqali olib borgani ham shu sababdan. Ertaklar bolaning nafaqat tilini, balki ruhiyatini shakllantiradi, uning yaxshi va yomonni ajrata olish qobiliyatini kuchaytiradi, tasavvur qilishga o'rgatadi. Yana u bolaning adabiyyotga mehrni oshirib, kitobga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Bolaligimizda kechki soatlarda radiodan jonli tarzda ertaklar berilgani esimda. Biz, bolalar radio atrofida jam bo'lib, hayrat va quvonch bilan ularni tinglardik. Tafakkur qilaman: bir vaqtlar eshitgan o'sha ertaklarimiz aslida bola qalbimizda mehr-shafqat uyg'otgan, yaxshilikka undagan tengsiz kuch bo'lgan ekan. Hozirgi kunda esa vaziyat butunlay o'zgargan. Bugunning bolalarining diqqati asosan ekranlarga qaratilgan, ular planshet va smartfonlar orqali axborot olishmoqda. Ya'nikim, elektron texnologiyalar va gadjetlar bolalarning e'tiborini to'liq egallab olgan. Bu esa, o'z navbatida, bolalarda kitobxonlik madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Asli bu muammo faqat bizni emas, balki butun dunyo aholisini tashvishga solmoqda. Quvonarsi, ko'plab mamlakatlar bu muammoga ijodiy yondashib, bolalar adabiyyotini rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishga harakat qilishmoqda.

"Bolalar adabiyyotiga investitsiya qilish jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi", degan xulosaga kelgan mamlakatlar hozirda bolalar o'rtaida kitobxonlikni targ'ib

qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, Finlyandyada bolalar uchun kitoblar davlat ko'magi bilan nashr etiladi va maktab kutubxonalarida ular uchun maxsus tanlovlardan o'tkaziladi. Germaniyada esa bolalar adabiyyoti tahlil qilinadigan markazlar faoliyat yuritib, yozuvchilar, rassomlar va pedagoglar bilan hamkorlikda yosh kitobxonlarga mo'ljallangan yuksak saviyali asarlar nashr qilinadi. Norvegiyada esa yangi nashr etilgan bolalar kitoblari hukumat tomonidan sotib olinib, mamlakat bo'ylab kutubxonalarga tarqatiladi. Bu esa nafaqat yozuvchilarini moddiy qo'llab-quvvatlaydi, balki kitobxonlik madaniyatining rivojiga ham xizmat qiladi.

Germaniyada davlat bolalar uchun nashr qilinadigan kitoblar sifati, tarbiyaviy ahamiyati va dizayniga qattiq e'tibor qaratadi. Har bir kitob chop etilishidan oldin, maxsus ekspertlar tomonidan tekshiriladi va ularning psixologik hamda pedagogik talablarga muvofiqligi baholanadi. Yaponiyada bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar nafaqat mazmuni, balki illyustratsiyalari bilan ham bolalarni o'ziga jalb etishiga katta e'tibor beriladi. Ya'ni bu mamlakatda kitoblar bolalar psixologiyasi va

ularning eng yoqimli ranglarga bo'lgan qiziqishini hisobga olgan holda tayyorlanadi. Shuningdek, u yerda bolalar adabiyyoti festivallari va interaktiv tadbirlar keng yo'liga qo'yilgan.

Xo'sh, bu borada O'zbekistonda holat qanday? To'g'ri, bizda ham bolalar adabiyyotini rivojlantirish bo'yicha talaygina ijobi o'zgarishlar kuzatilmoxda. Turli tanlovlardan, kitobxonlik kechalari kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Lekin shunga qaramay, hali-hanuz sifatlari nashrlarning yetishmovchiligi sezilmoqda. Bolalar uchun nashr qilinayotgan ba'zi kitoblarda illyustratsiyalar sifatsiz, qog'oz tanlovi esa talabga javob bermaydi. Shuningdek, ko'pchilik ertak kitoblaridan o'ren olgan asarlar mazmunan bolalar psixologiyasiga mos kelmaydi. Saviyasz yozilgan, imloviy, orfografik xatolari ko'p. Eng achinarlisi, bugun xalq ertaklari o'renni mazmunsiz to'qima ertaklar egallayapti. Endi tafakkur qilib ko'ring, shunday sifatsiz kitoblar bolalarning insoniy hiss tuyg'ularini, didini, dunyoqarashini qanday shakllantiradi?

Yaqinda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining shu mavzu bo'yicha bildirgan fikrlari e'tiborimni tortdi:

- Yaqinda 5 va 7 yoshli nevaralarim sport to'garagida yutuqqa erishdi. Kichkinligimizda dadam biz matabda qanday yutuqqa erishsak, kitob sovg'a qilardi. Men ham dadamning yo'lini tutib, nevaralarimga sovg'a olish maqsadida kitob do'koniga olib bordim, - deydi Ra'no Jamilova ismli foydalanuvchi.  
- To'g'ri, ertak kitoblar ko'p. Jildiga chiroyli ishlov berilgan bir ikkita kitobni olib varaqlab o'qib ko'rdim. O'qidim-u, hafsalam pir bo'lib ketdi. Ishonasizmi, sevgi-muhabbat, o'ldim-kuydim haqida yozilibdi! Yoqamni ushlab qoldim. Yosh bolalarga atalgan kitobda shunday behayolikning targ'ib qilinishi – bu mentalitetimizga, qadriyatlarimizga turpurish degani. Menimcha, kitob chiqarishni biznesga aylantirgan kimsalarning ishi bu. Ularni men millatimizning dushmani deb bilaman.

Dildora Ibragimova ismli follower esa shunday yozadi:

- Bolalarimga ertak kitob sotib olmay qo'ydim. Sababi bugun sotuvga chiqarilgan ko'p ertaklar xalq ertaklari emas, to'qib chiqarilgan. Ma'no-matrasni yo'q. Bizni paytda ertak kitoblar bola tilida yozilgan bo'lardi. Mazmuni ham boy edi. Hozirgi kitoblar esa unday emas. Bir xil ertaklarda vahshiylikning, yomonlikning ezgulik ustidan g'alaba qilganiga urg'u berilganini o'qidim. Asli buning aksi bo'lishi kerak emasmi? Bu ertaklar bolalarga ma'naviy ozuqa bermaydi-da.

- Qizim kitob o'qishni yaxshi ko'radi. Bir oy avval uni xursand qilish uchun kitob do'koniga olib bordim, - deydi Nargiza Karimova.

- Kuzatsam, kichik-kichik hajmli ertak kitoblar ko'payib ketibdi. Balki bu o'qish uchun qulaydir. Lekin kitoblarning sifati menga yoqmadи. Sifati past qog'ozga bosilgan, yana suratlari ham xira. Bolalar kitobida suratlarning bo'lgani yaxshi, chunki suratlar bolaning tasavvurini kengaytiradi, estetik didini shakllantiradi. Endi o'ylab ko'ring, nima tasvirlangani noma'lum bu suratlardan bolalarga nima naf?

Xullas, ijtimoiy tarmoqlarda mavzu bo'yicha bildirilgan fikrlar bolalar adabiyyotining bugungi holatini ochiq-oydin ko'satdi. Aslida bolalar adabiyyotini rivojlantirish yosh avlodning ma'naviy kamolotini ta'minlash demakdir. Shuning uchun bizda ham xorij tajribasidan kelib chiqqan holda, bolalar adabiyyotini rivojlantirish uchun tizimli yondashuvni yo'lgan qo'yish vaqt keldi. Zotan, bolalar uchun faxrli tariximizni, qadriyat va analalarimizni o'zida jamlagan, sifatlari, mazmunan boy, yorqin tasvirlarga ega, yoshlar ongiga ijobji ta'sir ko'rsatadigan, ularning ma'naviy va axloqiy tarbiyasini boyitadigan kitoblarning nashr qilinishi va bolalarni kitobxonlikka qiziqtiruvchi zamonaviy loyihalar va tadbirlar tashkil etilishi hech qachon foydadan xoli bo'lmaydi.

Albatta, bolalar adabiyyotini rivojlantirish faqatgina yozuvchilar va noshirlar zimmasida emas, balki bu ish butun jamiyatning, ayniqsa ota-onalar, o'qituvchilarning ham mas'uliyati hisoblanadi. Chunki kitob o'qishga muhabbatni shakllantirish uchun oildagi muhit, matabdag'i o'quv dasturlari va kutubxonalarining faoliyatini ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalar adabiyyotini rivojlantirishga yosh ijodkorlarni jalb etish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ham katta ahamiyatga ega. Dunyo tajribasidan ma'lumki, kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun davlat va jamoat tashkilotlari birgalikda keng ko'lamli ishlar olib boradi. Masalan, elektron platformalar orqali bolalar uchun interaktiv kitoblar, audio va video ertaklar yaratish, adabi tanlovlari va festivallar tashkil etish orqali yosh avlodni adabiyyotga qiziqtirish mumkin. Bugungi axborot asrida bolalarni gadjetlar ta'siridan xalos etish va ularni kitob mutolaasiiga jalb qilishda bu harakat, albatta, ijobji samara beradi.

Zero unutmasligimiz kerak, bugungi bolalar ertangi intellektual millat asoschilaridir!



**Podpolkovnik**  
**Gulnora XODJAMURATOVA,**  
**"Vatanparvar"**



## ILLAT OQIBATLARI TUSHUNTIRILDI

Toshkent harbiy okrugi boshqaruva apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushu turdag'i jinoyatlarni sodir etilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbir tashkil etildi. Unda harbiy okrug qo'mondonligi, Toshkent harbiy prokurori, mudofaa ishlari bo'limi harbiy xizmatchilari hamda Qurolli Kuchlar ishchi xizmatchilari va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Yig'ilganlarga qonun buzilishi holatlari hamda bunga imkoniyat yaratgan shart-sharoitlar hamda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlar xususida ma'lumot hamda qonunchilik talablari haqida tushuntirishlar berildi.

Uchrashuvda so'z olganlar bugungi kunda ayrim soha yo'nalişlarida korrupsiya holatlari saqlanib qolayotganini ta'kidlar ekan, harbiy qism hamda muassasalarda mazkur illatning oldini olish bo'yicha ko'rilib qolayotgan choralar tizimli ravishda muhokama qilib borilishi lozimligini bildirdi. Shuningdek, korrupsiyaga murosasizlik, unga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, yangi tashabbus va g'oyalarni faol amalga oshirish yuzasidan qator takliflar ilgari surildi. Uchrashuv yakunida sodir etilgan jinoyatlarni yuzaga keltiradigan sabablar o'rganilib, bu borada tayyorlangan tahliliy hisobot muhokama qilindi.

Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati

### Yoshlarning muammo va qiziqishlari o'rganildi

Nukus harbiy prokururaturasi tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda harbiy qismlarning birida tashkil etilgan "Jasorat maktabi" o'quv yig'inida yoshlardan uchrashuv o'tkazildi.

So'z olganlar yoshlarga yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar, ona Vatanga muhabbat va sadoqat, xalqqa xizmat, tinchlik qadri, shukronalik hissi xususida to'xtalib o'tdi.

Jarayonda yoshlardan o'zlarini qiziqitirgan masalalar bo'yicha batafsil ma'lumotga ega bo'ldi.

Yakunda shaxsiy qabul tashkil etildi. Unda yoshlarning muammolarini, qiziqishlari va takliflar o'rganildi. So'ng ularning murojaatlarini hal etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Adliya mayori  
Ulug'bek DAUBAYEV,  
Nukus harbiy prokurorining  
o'rinnbosari

## Inson qadri uchun

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururaturasi tomonidan Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda "Harbiy prokuratura – armiya prokururaturasi" shiori ostida o'tkazib kelinayotgan kompleks tadbirlarning navbatdagisi Buxoro viloyatining Qorovulbozor va Navoiy viloyatining Uchquduq tumanlarida o'tkazildi.

Jarayonda Buxoro neftni qayta ishslash zavodiga qarashli oilaviy poliklinikada hamda Uchquduq tumanidagi 36-oilaviy poliklinikada harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari, farzandlari, harbiy xizmatchi ayollar, xodimlar, ularning oila a'zolari uchun tor doiradagi mutaxassislik bo'yicha malakali shifokorlar jalb etilgan holda, bepul chugurlashtirilgan tibbiy ko'rlik tashkil etildi.

Shuningdek, ochiq muloqotda mas'ullar tomonidan xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik mazmun-mohiyati yetkazildi.

Asnoda ayollarning muammolarini o'rganilib, ularni hal etish borasida zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Adliya podpolkovnigi Gulchekhraxon TURSUNOVA, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

## "Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz!"

Toshkent harbiy prokururaturasi tomonidan Toshkent harbiy okrugi qo'shini shiori ostida o'tkazildi.

Unda viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi, uning barcha tuman (shahar) bo'limlari xodimlari ishtirok etdi. Muloqotda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun mohiyati, korrupsiyaviy jinoyatlar va ular uchun belgilangan javobgarlik masalalari haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, korrupsiyaga oid huquqbazarlik korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilgani uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish hisoblanadi.

Shaxsning shaxsiy (*bevosita yoki bilvosita*) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlar o'ttasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (*mavjud manfaatlar to'qnashuvi*) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (*ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi*) vaziyat manfaatlar to'qnashividir.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini qaysaltilish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalgalash, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, oqibatlarini, imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sanaladi.

Tadbir savol-javoblarga boy bo'ldi.

Adliya mayori Otobek MENGLIYEV, Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

## Kasbiy mahorat oshdi, bilim va ko'nikma mustahkamlandi

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda kadrlar bilan ishslash masalasi har qachongidan ham dolzarb sanaladi.



Mazkur yo'nalişda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining 2022-yil 23-dekabrdagi hamda 2023-yil 31-maydag'i tegishli farmoni va qarori ijrosi doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururaturasi tomonidan tizimdag'i xodimlar, ayniqsa yosh mutaxassislarining kasb mahorati, nazariy va amaliy bilim hamda ko'nikmalarini yuksaltirish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shunday tadbirlarning navbatdagisi tizimda xizmat qilib kelayotgan yosh mutaxassislar ishtirokida "Harbiy prokuratura – armiya prokururaturasi" shiori ostida tashkil etildi.

Uch kunlik o'quv-amaliy seminarning ilk kunida mahkama tarkibiy tarmoqlari mas'ul xodimlarining hamda taklif etilgan ekspert-mutaxassislarining amaliyatga doir dolzarb mavzulardagi ma'ruzalarini tinglandi, amaliyotda uchraydigan holatlar yuzasidan fikr-mulohazalar almashildi, kun yakunida Bosh prokururatura tomonidan ishlangan "Adolat" filmi namoyish etildi.

Ikkinci kungi tadbirlar asosan, Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bo'lib o'tdi. So'ngra qatnashchilar "O'zbekiston prokururaturasi tarixi" va "Harbiy prokuratura tarixi" muzeyleari bilan tanishtirildi. Yakunda Harbiy prokururatura elektron o'q otish tayyorgarligi o'quv xonasida yosh mutaxassislardan sinov qabul qilindi.

Uchinchi kuni ishtirokchilar jismoniy tayyorgarlik, saf tayyorgarligi, shuningdek amaldagi qonunlar, harbiy nizomlar va Bosh prokuromning sohaviy qabuqlari bo'yicha sinovlar topshirdi.

Adliya podpolkovnigi G'iyosiddin RAXMONOV, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

Ijtimoiy himoya

# 10 NAFAR AYOL ISH BILAN TA'MINLANDI

Qurolli Kuchlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat milliy armiyamizning jangovar kuch-qudratini yuksaltirishga, balki bu tizimda faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini har tomonlama ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga ham xizmat qilmoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy shaharchada harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash maqsadida yangi kichik tikuv korxonasi ishga tushirildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali marosimda so'z olganlar so'nggi yillarda mamlakatimizda mudofaa sohasida olib borilayotgan islohotlar va chora-tadbirlarning ahamiyati, harbiy xizmatchilar hamda oila a'zolarining turmush tarzini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yaratilayotgan imkoniyatlar xususida atroficha fikr yuritdi.

Shundan so'ng harbiy orkestrning kuy-sadolari ostida ramziy tasma kesilib, sex ishga tushirildi.

Ushbu korxona 10 dona zamonaviy tikuv mashinasi bilan ta'minlangan bo'lib, hozirgi



kunda bu yerda 10 nafar yurt posbonining turmush o'rtoqlari o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yi. Albatta, tikuvchi ayollar endilikda o'z bilim va ko'nikmalarini ishga solish orqali, oilaviy turmushini yanada yaxshilab, turmush o'rtoqlariga ko'makchi bo'ladi.

Bilamizki, sifatlari mahsulot ishlab chiqarish tikuvchilarning eng asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bois yangi tikuv korxonasida xodimlarga dastavjal tajribali mutaxassislar tikish va to'qish sirlarini o'rgatib boradi. Endigina ishlashni boshlagan opa-singillarimiz uchun bu maskan faqat ish joyi emas, balki ularning kasbiy mahoratini oshirish imkoniyati ekani quvonarli.

**Kichik serjant  
Davlatbek RAHMATOV**  
Surxondaryo viloyati

## Hamkorlik

### IKKI TOMONLAMA KELISHUV IMZOLANDI



O'zbekiston Respublikasi mudofaa-siga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va "The Kasb xususiy bandlik agentligi" MChJ o'rta-sida hamkorlik kelishivi imzolandi.

Mazkur kelishuvni tuzishdan asosiy maqsad, mamlakatimizda va xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan respublikamiz fuqarolarini "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida turli texnik kasblarga o'qitish va ularning egallagan kasb-hunarlariga mos ravishda ish o'rnlari ga yo'naltirish hisoblanadi.

Hozirda Yevropa davlatlarida texnik kasb mutaxassislariga bo'lgan yuqori talabni "Vatanparvar" tashkiloti imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qondirish maqsad qiliinmoqda.

Ayni paytda Yevropada 80 mingdan ziyod "CE", "D" toifadagi haydovchilarga va minglab turli texnik kasb egalariga ehtiyoj sezilayotgani o'z-o'zidan turli mamlakatlardan, jumladan O'zbekistondan ishchi kuchlarining Yevropa davlatlariga borib ishlashlari uchun imkoniyat yaratmoqda.

"Vatanparvar" tashkilotining 206 ta o'quv muassasalarida respublika bo'ylab yiliga o'rtacha 150 ming nafar fuqaro haydovchilik kasbiga hamda minglab aholi vakillari texnik xizmat ko'stishi va murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassisliklariga tayyorlanmoqda. O'z navbatida, ushbu omil tashkilotning Yevropa davlatlari talabini qondirishi mumkin bo'lgan malakali kadrlarni yetkazib berish quvvatiga ega ekanini anglatidi.

Hamkorlik kelishivi imzolanishi jarayonida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov va "The Kasb xususiy bandlik agentligi" MChJ direktori Mirg'ulom Usmonov mazkur hujjatda belgilangan vazifalarni o'z muddatlarida sifatlari bajarilishini ta'minlash masalalarini va istiqboldagi rejalarini kelishib oldi.

Tanlov

## ENG IBRATLI

*oilalar aniqlandi*

Oila insonning dastlabki tarbiya maskani, mehr va oqibat manbai hisoblanadi. Unda ahillik va totuvlik hukm surishi nafaqat oilaning, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Farzandlar tarbiyasi borasida esa bu muqaddas dargohda inson umri mobaynida asqatadigan va hayot uchun zarur bo'lgan barcha fazilatlarga ega bo'ladi.



Ma'lumki, Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchilarning oilalarida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ma'naviy-axloqiy muhitni o'rganish, ularda turli yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish borasida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida joylashgan harbiy qismlardan saralanib kelgan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari o'rta-sida "Yangi O'zbekistonning iibratlari oilasiman" shiori ostida "Ibratli harbiy oila" ko'rlik-tanloving qo'mondonlik bosqichi o'tkazildi.

Ishtirokchilar "Oilam - mening baxtim", "Kuch - birlikda", "Darts", "Osh

pishirish", "Mozaika yig'ish" va "Musiqi kompozitsiya (duet)" deb nomlangan shartlar asosida kuch, bilim va imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi.

Shiddatli va murosasiz bahslar hakamlar tomonidan munosib baholab borildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlaridagi harbiy qismlar o'rta-sida III darajali serjant G'olibjon Po'latov oиласи, Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi harbiy qismlar o'rta-sida esa III darajali serjant Hasan Ikromov oиласи faxrli birinchi o'rinni egalladi hamda keyingi bosqichda ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Tadbir so'ngida g'olib va sovrindorlarga qimmatbaho sovg'alar, diplom hamda pul mukofotlar topshirildi.

**Shahnoza SULTANOVA**  
TOQQQ matbuot xizmati

## O'zbekiston kubogi

### CHIRCHIQDA YOZGI BIATLON SPORTCHILARI BELLASHDI



Toshkent viloyati Chirchiq shahrida sportning yozgi biatlon turi bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaa-siga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan tashkil etilgan musobaqada respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 100 nafar sportchi 4 ta mashqda bellashdi.

Musobaqada sportchilardan turli masofalarda belgilangan joyga yugurib hamda rollerda harakatlarga holda kelishlari va pnevmatik miltiqdan nishonni mo'ljalga olishlari talab etildi.

Bellashuvda qizlar "3 km - sprint" mashqida va "4 va 7,5 km - roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonga qarata o'q uzdi.

Erkak sportchilar esa "3 va 4 km - sprint" mashqida va "5 va 10 km - roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonni mo'ljalga oldi.

Qizg'in va murosasiz kechgan musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

**Qizlar o'rta-sida:**

**"3 km - sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Inobat Tojiboyeva (Toshkent v);  
**2-o'rin:** Dilafro'z Mirozimova (Toshkent v);  
**3-o'rin:** Odina Arapova (Farg'onha v).

**"4 km - roller-sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Gulnura Qadamboyeva (Xorazm v);  
**2-o'rin:** Zuhra Ro'zimova (Xorazm v);  
**3-o'rin:** Irina Tarasova (Namangan v).

**"7,5 km - roller-sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Inobat Tojiboyeva (Toshkent v);  
**2-o'rin:** Madina Sagatova (Xorazm v);  
**3-o'rin:** Odina Arapova (Farg'onha v).

**Erkaklar o'rta-sida:**

**"3 km - sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Samir Ismatillayev (Toshkent sh.);  
**2-o'rin:** Doniyor Karimjonov (Namangan v);  
**3-o'rin:** Asliddin Fayzullayev (Buxoro v).

**"4 km - sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Tursunboy Qosimov (Toshkent sh.);  
**2-o'rin:** Abbas Davronov (Xorazm v);  
**3-o'rin:** Ruslan Xojiyev (Toshkent v).

**"3 km - roller-sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Dilmurod To'xtamurodov (Toshkent v);  
**2-o'rin:** Behro'z Xusanboyev (Toshkent sh.);  
**3-o'rin:** Renat Raimkulov (Toshkent v).

**"5 km - roller-sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Samir Ismatillayev (Toshkent sh.);  
**2-o'rin:** Jonibek Ilyosov (Toshkent v);  
**3-o'rin:** Bekzod Xo'janazarov (Toshkent sh.).

**"10 km - roller-sprint" mashqida:**

**1-o'rin:** Yusuf Abdullaev (Toshkent v);  
**2-o'rin:** Tursunboy Qosimov (Toshkent sh.);  
**3-o'rin:** Farhod Abdulhakov (Toshkent v).

**Umumjamoa hisobida:**

**1-o'rin:** Toshkent viloyati;  
**2-o'rin:** Toshkent shahri;  
**3-o'rin:** Namangan viloyati jamoalari.  
Musobaqa yakunida g'oliblar va yuqori o'rnlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

1A

# 'Navro'zi olam mu'borak!



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Sirdaryo viloyati kengashi jamoasi yasharish va yangilanish fasli bahorning tarovatli va shukuhli damlarida Navro‘z bayrami bilan Vatanimiz osoyishtaligi yo‘lida tun-u kun hushyor turib, sharafli va mas’uliyatli xizmat burchini mardonavor ado etayotgan harbiy xizmatchilarni, ularning oila a’zolarini va yaqinlarini, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga o‘z hissasini qo‘shayotgan mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti xodimlarini hamda butun mamlakatimiz ahlini samimiy tabriklaydi.

**Barchangizga tinchlik-omonlik, baxt-saodat,  
xonadoningizga, el-yurtimizga fayz-u baraka tilaymiz!**

# **Bayramingiz muborak bo'lsin!**

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Chiroqchi tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi jannatmakon yurtimiz tabiatи uyg‘ona boshlagan bugungi shukuhli damlarda O‘zbekiston xalqini Navro‘zi olam bilan tabriklaydi.

**Ushbu ayyom barchangizga bahoriy xush  
kayfiyat, baxt va omad olib kelsin!**

**Bayramingiz muborak  
bo'lsin, aziz hamyurtlar!**



# *Har kuningiz bo'lsin Navro'z!*



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga  
ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Sirdaryo  
viloyati kengashi tasarrufidagi Sardoba tumani o‘quv  
sport-texnika klubi jamoasi yasharish va yangilanish  
ayyomi – Navro‘z umumxalq bayrami bilan  
“Vatanparvar” tashkilotida mehnat qilayotgan barcha  
hamkasblarini hamda butun mamlakatimiz ahlini  
samimiy muborakbod etadi.

**Har tuning qadr o'lubon,  
Har kuning o'lsun Navro'z!**



An'ana

# AMIR TEMUR DAVRIDA

Navro'z, shuningdek turli madaniyatlar va xalqlar uchun bir-biridan farq qiluvchi an'analar va rituallar bilan boyitilgan bayramdir. Navro'zning asosiy ramzi hayotning yangilanishi va tabiatning uyg'onishidir. Bayramda tabiat, bahor va o'zaro tinchlikka, yaxshilikka, farovonlikka bo'lgan ehtirom namoyon bo'ladi. Bu bayram, bir tomonidan, qadimiy zoroastrizm dini bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomonidan, musulmonlar uchun ham ahamiyatga ega, chunki ba'zi joylarda u diniy bayram sifatida nishonlanadi.

## Navro'z bayrami

Tariixa nazar soladigan bo'lsak, Navro'z bayramining kelib chiqishi Fors podshohligi davriga borib taqladi. Miloddan avvalgi 500 yillarda yashagan qadimgi forslarning Navro'z bayrami haqidagi ma'lumotlar mavjud. Bayramning asosiy g'oyasi – tabiatning qayta tiklanishi, yangi hayot va bahorning boshlanishi bilan bog'liq. XII asrga kelib, Yer yuzining katta qismini Chingizzon boshchiligidagi mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi tufayli o'z davrining sivilizatsiyasi markazi bo'lgan ko'plab shaharlar vayron etilishi natijasida bir asdan ortiq davr mobaynida taraqqiyot va rivojlanishning to'xtab qolishiga olib keldi. Shu davrda an'anaviy bayram bo'lib kelayotgan Navro'z ayyomi nishonlanmay qo'yiladi.

XIV asr o'rtalariga kelib, Movarounnahrda siyosiy hokimiyaq tepasiga Amir Temur kelishi natijasida Temuriylar davlatiga asos solinadi. Yurtda tinchlik o'rnatilib, gullab-yashnashi uchun buniyodkorlik ishlariga, ilm-fan taraqqiyotiga shaxsan Amir Temurning o'zi boshchilik va homiylik qiladi.

Amir Temur xalqni davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida qadimgi Sharq an'anasi bo'lgan Navro'zning umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishiga katta e'tibor beradi.

Bayram arafasida Amir Temur o'zi yaratgan bog'larning biriga harbiy chodirini tikib, qo'shinda xizmat qilayotgan jangchi askarlardan tortib, harbiy sarkardalar hamda fuqarolar o'rtasida sport o'yinlaridan iborat musobaqalar tashkil ettilgan. Musobaqa ishtirokchilari kurash, chavondozlik, kamondan o'q uzish, yugurish kabi sport turlari bo'yicha bellashgan. Ushbu musobaqalarni Amir Temur shaxsan o'zi adolatli boshqarib turgan. Musobaqadan so'ng doshqozonlarda milliy taomlar tayyorlanib, milliy kuy-

maqomlar ijrosida bayramlar tashkil etilgan. Bu an'ana Amir Temurdan so'ng temuriy shahzodalar davrida ham amalga oshirilib borilgan.

**Abdurazzoq RADJABOV,  
Qurolli Kuchlar davlat muzeyi  
katta ilmiy xodimi**

### Bayram shukuhi

"Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'lsin Navro'z". Mir Alisher Navoiy bobomiz ta'biri bilan aytigan ushbu jumla necha asrlar o'tsa-da, Navro'z insoniyatning eng go'zal kunlaridan biri ekanini ta'kidlash barobarida tarbiya va hikmat bo'lib dillardan dillarga o'tib kelmoqda.



## QADRIYATLARING BOQIY-BO'L SIN



Yangilanish, yasharish fasli boshlandi. Shunday shukuhli kunlarda, ayniqsa mamlakatimizning janubiy sarhadlarida Navro'z umumxalq bayrami o'zgacha ruhda keng nishonlanmoqda. Jarqo'rg'on tumanidagi Qo'shetea mahallasi adirligida tashkil etilgan Navro'z sayli fikrimizning yaqqol isbotidir.

Bilamizki, bayram munosabati bilan qir-u adirlarda tiklanadigan qo'rg'onlar, o'tovilar, chodirlar, sumalak sayillari, surxon vohasining o'ziga xos an'analarini namoyon qiladi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchilik, milliy taomlar, tarixiy va milliy liboslar ko'rgazmalari, shuningdek milliy raqs san'ati va folklor jamoalar, taniqli san'atkorlar, viloyat madaniyat markazi xonandalari, harbiy baxshilar va harbiy orkestrning badiiy chiqishlari barchaga manzur bo'ldi. Ayniqsa, shodiyonada mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti sportchilarini tomonidan uchirilgan varraklar parvozi Navro'z saylining ko'rkiga yanada ko'rk bag'ishladi.

Harbiy qismlardan tashrif buyurgan mohir oshpazlar tomonidan tayyorlangan o'zbek milliy taomlari sayilga tashrif buyurgan mehmonlarga hamda ishtirokchilarga ulashildi.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV  
Termiz garnizoni**

Badia



**Ochaxon momo yon  
qo'shnisi Qadriya xolaning  
uyiga chiqmoqchi bo'lib,  
ko'cha darvozasi tomon  
yaqinlashgan ham ediki,  
chopqillab kirib kelgan  
nabirasi Gullolaga duch  
keldi. Ko'zları quvonchdan  
kulib turgan qizgina  
buvisini ko'rgan zahoti  
nimanidir orqasiga berkitdi.  
"Qaqajonimda bir gap bor"  
xayolidan o'tkazdi momo.**

- Buvijon, sizga nima olib kelganimni bilasizmi? - maqtanib, ko'zları yonib jilmaydi qizaloq.

- Seni shu qadar xursand qilgan narsa nima ekan, bolam?!

- Mana, - qo'liga tutamlab olgan bir to'p boychechakni quvonch ila orqasidan chiqardi Gullola.

- Vooy, bahor darakchilari-ku! - nabirasi kabi Ochaxon momoning yuzi shodlikdan yorishib ketdi. Boychechaklarni ko'zlariga surib, yana bir ko'klam nasib etgani uchun shukronalar keltirdi.

- Siz uchun ho'o' bog'lar etagidan topib keldim. Chiroyl a, buvijon?

- Chiroyl ham gapmi, bolaginam, kel, seni bir bag'rimga bosay! O'zimming mehrbonim. Bu gullarni bilasanmi, hozir nima qilamiz, bermor yetgan Qadriya buvingga olib kiramiz.

- Ular boychechaklarni ko'rib, sog'ayib ketadimi?

- Albatta, sog'ayib ketadi. Chunki bu gullar oddiy gullar emas, ko'klamoyning, Navro'zning sehrli elchilar. Ularga ko'zi tushgan bermor borki, kasalini unutadi.

- Buvijon, gaplaringiz xuddi ertakka o'xshaydi. Ko'klamoy haqida gapirib bering!

- Avval Qadriya buvingni ko'raylik, keyin gapirib beraman. Faqat...

Qo'shni mehmonlarni momoning kelini Badriya opa qarshi oldi va ichkariga taklif etdi. Ochaxon momoni ko'rib, Qadriya xola yostiqdan bosh ko'tarishga harakat qildi. Biroq saksandan oshgan betob onaxonning bunga madori yetmadi.

- Bezovta bo'l mang, o'rtoqjon, hademay oyoqqa turib ketasiz, - salom-alikdan so'ng buvi-nabira uning oldidan joy olishdi.

- Mana, bahor ham eshil qoqyapti, buyog'i Navro'z. Ko'klam ne'matlari ming dardga shifo, deydir. Xudo xohlasa, dardlarining ortda qoladi.

- Aytganizing kelsin, o'rtoqjon. Bu yilgi ko'klamini ko'rish nasib etarmikan, deb yotibman-da.

# Ayyomning SEHRLI SINOATLARI



- Albatta, ko'rasiz. Nabiramning hozir sizga beradigan alohida sovg'asi bor.

- Buvijon, sizni kirib kelayotgan bahor bilan tabriklayman, - Gullola buvisi bilan kelishib oorganidek, kamzulchasingin ichiga yashirib turgan boychechaklarini chiqardi.

Qadriya xolaning xira tortgan ko'zları yaltillab ketdi go'yo.

- Nahot, qish zahmi ortda qolib, ko'klam kelgan bo'lsa? O'ziga shukr, o'ziga shukr...

Onaxon gullarni tavof qilish asnosida yostiordan bosh ko'tarishga qayta-qayta harakat qilardi. Shunda Badriya opa yordamga shoshildi. Momoning orqasiga yostiqlar qo'yib, o'tirishiga ko'maklashdi.

"Buvijon, rostdan ham bahor gullari sehrli ekan", buvisining qulog'iga shivirladi Gullola. Uning so'zlarini sal o'tmay, Badriya opa tasdiqladi.

- Asal qizim, olib kelgan gullaringda sehr bormi, deyman? Ikki oydan buyon bosh ko'tarmagan onamni turg'azib yubordi-a. Bu g'ayratida hademay yurib ketadi...

Buvu-nabira qo'shni hovlidan xushnu daryatishi.

- Buvijon, Qadriya buvimni ko'rib chiqdik, endi ko'klamoy, Navro'z haqida gapirib berasizmi?

- Albatta, qizalog'im, unda so'zimni bo'l may eshit. Senga enalarimizdan qolgan rivoyatni aytilib beraman. Qishning oxiri, mart oyining boshlarida "To'qsoon, bir kumincha yo'qsan!" deb Ayamajuz momo izg'irin va sovuqlarni olib keladi. Uni Ajuz momo deb ham atashadi. Rivoyatlarda aytishicha, momoning to'qson nafar o'g'li bo'lib, har biri qishning bir kuniga egalik qilarkan. Qish yaxshi kelmasa, kampirshoning jahli chiqib ketarkan. Sovuq qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yishga harakat qilarkan. Shuning uchun bahor keldi, deb aslo yupun kiyinib bo'lmaydi.

- Shu sabab "Kunning iliganiga ishonma, qalin kiyinib ol", der ekansiz-da, buvijon?

- Xuddi shunday, qizim! Ko'klamoy esa mana shu qish qahrinini yengib, mudrab yotgan daraxtlar-u, o't-o'lamlarni sehrli nafasi bilan uyg'otib, bahorni boshlab keladi. Dov-daraxtlar va yerimizni gullarga, ko'm-ko'k maysalarga burkaydi. Bemorlarni ne'matlari bilan oyoqqa turg'azadi.

- Qanday ne'matlari, buvijon?

- Bahorning ilk ne'matlari boychechak, chuchmoma, yalpizlar hisoblanadi. Uni

ko'rgan odam borki dili yayraydi, ruhiy quvvat oladi. Keyin bahorda bosh ko'targan maysalar salovat aytilib, zaminga omonlik tilab unar ekan. Ulardan tayyorlangan ko'ksomsa,

ko'kchuchvara, sumalak va halim kabi taomlarning shifobaxsh sheri bor, deyishadi. Bundan tashqari, momolarimiz yilboshi, ya'ni Navro'z saylida yetti yoki to'qqiz xil dondan - bug'doy, no'xot, makkajo'xori, mosh... kabi zirotlardan solib, yilgo'ja nomli taom tayyorlashgan. Katta doshqozonlarda yilda bir marotaba pishirilgan bu aziz ne'matdan sayilning barcha ishtirokchisi u boyomi, kambag'almi, amaldor-u xizmatkormi, bir so'z bilan aytganda, shoh-u gado birga tanovul qilgan. Bu el-ulusning mehr-oqibatlari, xaysaxovatlari, bag'rikeng va teng huquqli ekanini namoyon etgan.

- Buvijon, nima uchun Navro'zni yilboshi, deyishgan?

- O'zimning dono qizim, hozir bu haqda ham gapirib beraman. Yilboshi deyilishiga sabab Navro'z kun bilan tunning teng kelgan pallasi hisoblanadi. Ajoddalarimiz yangi yilni aynan shu kundan hisoblashgan va yangi yil, ya'ni yilboshi sifatida nishonlashgan. Barcha chiroylar an'analarni yuzaga chiqarishgan, o'yin-kulgilar qilishgan. Bemorlar holidan xabar olingan, arazlashganlar yarashgan. Navro'z saylida oshpazlar, qandolatchilar, novvoylar, mashshoqlar, masxarabozlar, dorbozlar... barcha hunar ahli o'zining bor mahoratinan namoyish etgan. Ko'pkari va polvonlar kurashi bo'lgan.

Bundan tashqari, davra qurib, qo'chqor va xo'roz urishtirishgan. Buni go'yoki qish bilan ko'klamning o'zaro bellashuvi deb bilishgan. Dehqonlar esa yoshi ulug'lar va sayil ahlining duosi ostida mo'l hosil tilab, yerga urug' qadagan. Shu kuni tug'ilgan chaqaloqlarga, albatta, Navro'z va Navro'za ismlari qo'yilgan. Ularning toleyi baland bo'ladi, deb hisoblashgan. Oila qurmoqchi bo'lgan yoshlar esa bayram ishtirokchilari guvohligida unashirtilgan. Navro'z ayyomi kuni hamma bir-biriga sovg'a-salom, shirinliklar ulashgan.

- Assalomu alaykum, buvijon.

Ochaxon momo yonginasida kulib turgan katta nabirasi

Salomatni ko'rib, hayratini yashirmadi:

- Qachon kelding, qizim? Kirib kelganingni sezmabmiz ham. Singlinga Navro'z haqida gapirib berayotgandim.

- Eshtidim, buvijon, bugun o'qituvchimiz ham Navro'z bilan bog'liq qadim afsonalarni so'zlab berdi.

- Qanday afsonalar ekan, qani, bizgayam aytilib ber-chi, bolam.

- Barchasini daftaramga yozib olganman,

- sumkasidan daftarni olishga shoshildi Salomat. - Hozir bir boshdan aytilib beraman. Turkiy mifologiyada ilk odam bahorda yaralgan degan qarash mavjud bo'lgan. Mazkur nuqtayi nazar keyinchalik islomiy ko'rinish olgan. Shu tarzda musulmon olamining bir bo'lagi bo'lib yashay boshlagan Yilboshi - Navro'z bilan bog'liq rivoyatlar shakllangan. Mana, eshitirg'an:

Xudo Yerni 21-mart kuni yaratgan.

Hazrati Odamning xamiri ham shu kuni qorilgan.

Shaytonning gapiga kirib, man qilingan mevani yeb qo'yan Odam Ato va Momo Havo jannatdan quvilib, biri Sarandip (*Shri-Lanka*) oroliga, ikkinchisi esa Jiddaga tushirilgan. Ayblariga pushaymon bo'lgach, Xudo ularni afv etib, 21-mart kuni Arofatda uchrashitirgan.

Buyuk to'fon payti qaldirg'och og'zida yashil novda bilan kemaga qaytgach, ko'klamning kelgani va tuproqning quriganini anglagan Nuh alayhissalom shu kuni yerga oyoq qo'yan.

Yunus alayhissalom baliq qornidan xalos bo'lgan kun Navro'z ayyomi edi.

Aka-ukalari tomonidan quduqqa tashlangan Hazrati Yusufni bir tujjor 21-mart kuni qutqargan.

Muso alayhissalom Navro'z kuni asosi bilan Qizil dengizni yorib, qavmini fir'avzulmidan omon saqlab qolgan.

Barchasi afsonaga singdirilgan qiziqarli ma'lumotlar-a, buvijon?

- Juda qiziqarli. Qizlarim, bu Navro'zimning qay darajada aziz ayyom ekanidan dalolat, - nabirasining gaplaridan dili yayrab ketdi Ochaxon momoning.

- Navro'z bilan bog'liq afsonalar, an'alar haqida qancha gapirsak, shuncha oz. Yodimga tushsa, yana gapirib beraman. Ming shukrki, mustaqilligimiz sharofati bilan Navro'zimizdag'i egzu odatlar bag'rimizga qaytdi. Bayram an'analarni yangicha tarzda chiroyl nishonlayapmiz. Mana shu bayram sabab qadim qadriyatlarimiz dunyoga yuz ochmoqda.

- Unda men ham barchaga sovg'a tayyorlab, Navro'z kuni beraman. Negaki bu eng-eng yaxshi bayram. Shundaymi, buvijon?

- Shunday, qizginam, Navro'z qadim qadriyatlarimizning javohiri. Buni aslo unutmanglar, bolalarim.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"



@Vatanparvargazetasi\_bot

"Vatanparvar" birlashgan tahriri yati bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

## VATANPARVAR



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@mail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya